O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining iqlim bilan bog'liq faoliyatga ajratilgan ulushi (%) [18]

	Jami iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ijobiy harajatlar	Iqlim ta'sirini yumshatish bilan bog'liq harajatlar	Iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liq harajatlar	Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq salbiy harajatlar
Milliard so'm	26302,4	612,7	25414,8	1006,0
Davlat budjetida % ko'rinishida	11,1%	0,3%	10,7%	0,4%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va xarajatlari tahlili (in-academy.uz,2023)

3-jadvalda berilgan raqamlarni tahlil qilganimizda, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining iqlim bilan bog'liq faoliyatga ajratilgan ulushini va harajatlarni quyidagicha o'rganish mumkin. Jami iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ijobiy harajatlar- 26 302,4 milliard so'm. Bu, jami davlat bidjetining 11,1% ini

tashkil etadi. Demak, davlatning umumiy xarajatlarining sezilarli qismi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ijobiy faoliyatlarga, ya'ni, iqlim ta'sirini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan. Iqlim ta'sirini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan. Iqlim ta'sirini yumshatish (carbon mitigation) – ya'ni uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi faoliyatlarga ajratilgan mablag'larning ulushi jami budjetining atigi 0,3% ni tashkil etadi. Bu, iqlimga qarshi kurashish uchun hali ham past darajadagi sarmoyani ko'rsatadi., bu soha uchun ko'proq resurslar ajratilishi mumkin. Iqlim o'zgarishiga moslashish (climate adaption) – bu soha, ya'ni suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi va hududiy infratuzilma kabi sohalarga moslashishni ta'minlashga ajratilgan mablag'larning ulushi 10,7% ni tashkil etadi. Bu, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlaridan (qurg'oqchilik, to'fonlar, suv tanqisligi) himoyalashga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq salbiy harajatlar – 1006,0 milliard so'm. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish, ya'ni iqlim o'zgarishining zararlarini bartaraf etishga ajratilgan mablag'lar 0,4% ni tashli etadi. Bu ham past ko'rsatkich bo'lib, bu sohadagi faoliyatning ko'payishi kerakligini ko'rsatadi. O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda va iqlimga moslashishda faoliyatini davom ettirmoqda, lekin ba'zi sohalarda, masalan, iqlim ta'sirini yumshatish va salbiy ta'sirlarga qarshi kurashishda ko'proq mablag' ajratilishi zarur. Bu, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoyalar va karbon chiqindilarini kamaytirishning yanada samarali usullari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Hukumat xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmoqda. Uzoq muddatli rejalarga ko'ra, ekologik muvozanatni saqlash va iqlim o'zgarishiga moslashish O'zbekiston uchun muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda 1-o'rin va MDH davlatlari bo'yicha 2-o'rin olishiga erishishi, mamlakatning yashil iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotganini ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligini oshirish, va iqlimga moslashish kabi sohalarda olib borilayotgan yirik investitsiya loyihalari va siyosiy tashabbuslarning samarasini bildiradi (4-jadval).

4-jadval

Yashil iqtisodiyot bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytingi [13]

Hudud	O'rin
Markaziy Osiyo	1
MDH davlatlari	2
Osiyo	4
Dunyo	13

Manba: Global Green Economy Index, 2023.

Yashil iqtisodiyot bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytingi Osiyo bo'yicha 4-o'rin va dunyo bo'yicha 13-o'rin olish orqali global miqyosda yashil iqtisodiyot bo'yicha yuksak pozitsiyaga ega bo'lishi, bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlarni ta'kidlaydi va boshqa davlatlarga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bu O'zbekistonning iqlimga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga bo'lgan jiddiy yondashuvi va global o'zgarishlarga moslashishdagi qat'iyligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida suvni tejash dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda tomchilatib sug'orish, yomg'irnatib sug'orish va lazer yordamida yer tekislash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar suv sarfini kamaytirib, hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, aqlli suv boshqaruvi tizimlari joriy qilinib, real vaqt rejimida suv taqsimoti nazorat qilinmoqda. Davlat tomonidan fermerlarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion yechimlarni keng joriy etish bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu texnologiyalar O'zbekistonning suv resurslaridan samarali foydalanishiga xizmat qilmoqda:

Jahon Banki hisobotiga ko'ra global iqlim o'zgarishlari O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishni jadallashtirishni talab qilmoqda. Suv resurslarining kamayishi va ekologik muammolar qishloq xo'jaligi hamda sanot tarmoqlarida barqaror yechimlarni izlashga undaydi. Shu bois, mamlakatda suv tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik toza ishlab chiqarish usullari keng joriy etilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish uzoq muddatli barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlash uchun muhim yo'nalishdir [19].

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi global iqtisodiy rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida barqaror o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan strategik jarayondir. An'anaviy iqtisodiy modelning resurslarga haddan tashqari tayanishi va ekologik tizimlarga yetkazgan salbiy ta'siri natijasida dunyo mamlakatlari yangi, ekologik mas'uliyatli iqtisodiy tizimni shakllantirish zaruratiga duch kelmoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yangi modeli, balki atrof-muhitni muhofaza qilish hamda resurslardan samarali foydalanishning muhim vositasi hisoblanadi. Global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadallashmoqda va ko'plab davrlar ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy qilmoqda. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish - bu faqat ekologik chora emas, balki yangi iqtisodiy paradigma hisoblanadi. U energiya samaradorligi, innovatsiyalar, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni o'zida mujassam etgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy kafolatiga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy ettirishni nazarda tutadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, toza texnologiyalar va "yashil" ishlab chiqarish modellariga o'tish nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki yangi investitsiya imkoniyatlarini ham yaratib beradi. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot raqamli innovatsiyalar, energiya xavfsizligi va ekologik muvozanat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. O'zbekiston ham ushbu tendensiyadan chetda qolmay, qayta tiklanuvchi energiyamanbalaridan foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik siyosatni takomillashtirish yo'lida muhim qadamlarni tashlamoqda.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelajakda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bir qancha ekologik qonunchiliklarni kuchaytirish va xalqaro darajada ekologik hamkorliklarni rivojlantirish orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. "United Nations Environment Programme (UNEP)" 2016-yil 27-martda asl nusxadan arxivlangan.
2. <https://www.unep.org/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do>
3. BLUEPRINT FOR A GREEN ECONOMY a report by David Pearce Anil Markandya Edward B.Barbier. <https://www.taylorfrancis.com/books/mono>.
4. https://www.researchgate.net/publication/230221479.The_PolicyChallenge_for_green_economy_andSustainable_Development
5. <https://whygreeneconomy.org/information/unep-green>
6. <https://www.researchgate.net/publication/40932460>
7. <https://www.oecd.org/en/publications/serials/oecd-green-growth>
8. Green economy: meaning and principles. <https://greenly.earth/en-us/blog/company-guide/green-economy-meaning-and-principles>
9. Yuldoshev I., " O'zbekistonda yashil iqtisodiyot: rivojlanish istiqbollari", 2020 - yil.
10. Turobova H. R., Kadirova M. M. Yashil iqtisodiyot / O'quv qo'llanma / H. R. Turobova, M. M. Kadirova – Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025.-96b.
11. To'raev Sh., "Qishloq xo'jaligi va yashil iqtisodiyot: ilmiy yondashuvlar", 2019
12. Karimov A., "Yashil iqtisodiyotda infratuzilma masalalari", 2022
13. Nasimov F., "Sanoat va yashil iqtisodiyotning o'zaro aloqalari", 2022

14. Mahkamov J., “Yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar: O‘zbekistondagi muammolar va yechimlar”, 2021
15. <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/>
16. <https://www.greenmatch.co.uk/blog/greenest-countries>
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-213-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasida "Yashil" iqtisodiyotga o‘tish jarayonida milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent, 2024-yil.
18. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Iqlim o‘zgarishini moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va texnologiyalar transferi to‘g‘risida milliy axborot ma‘ruzasi. - Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023. - 125 b.
19. Dual Citizen LLC. Global Green Economy Index 2023. – ВАШИНГТОН, 2023. – 112 с.
20. David Pearce, Anil Markandya, Edward B. Barbier. Blueprint For a Green Economy. <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/>
21. Barbier E. The Policy Journal of the UNEP Green Economy Initiative
22. Jacobs M. The Green Economy: Environment, Sustainable Development and the Politics of the Future
23. Schmalensee R., Stavins R. The Review of Environmental Economics and Policy

MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI DINAMIKA QATORLARI ASOSIDA TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI

Butanova Dilnoza Rustamovna,

Phd, dotsent

Ma'mun universiteti "Buxgalteriya hisobi"

kafedrası v.b prof.

Orcid 0000-0001-6362-680X

butanovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada statistika faning muhim elementlaridan foydalanish jihatlari yoritilgan bo'lib, bunda asosan mehnat bozoridagi o'zgarishlarni dinamika qatorlari vositasida tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari kursatib o'tilgan. Dinamika qatorlari vositasida mazkur bozor rivojlanish tamonlarini, shuningdek ishsizlik darajasini ham chuqur o'rganish jarayonini ososlashtirilishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqola nazariy va amaliy takliflar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, dinamika qatorlar, mutloq o'sish, mutloq kamayish, o'sish sur'ati, ishsizlik, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nafaol aholi, bazisli taqqoslash, zanjirsimon taqqoslash, mutloq miqdorlar, nisbiy miqdorlar, mehnat resurslari, bandlik, ish haqi, migratsiya.

ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИЗА ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ РЫНКА ТРУДА НА ОСНОВЕ ДИНАМИЧЕСКИХ РЯДОВ

Бутанова Дилноза Рустамовна,

кандидат экономических наук, доцент

Исполняющий обязанности профессора

кафедры «Бухгалтерский учет»

Университета Маъмуна

Аннотация. Статья освещает важные элементы использования статистики, уделяя основное внимание теоретическим и практическим аспектам анализа изменений на рынке труда с помощью временных рядов. Представлена информация о том, как применение временных рядов позволяет обоснованно и глубоко изучать тенденции развития этого рынка, а также уровень безработицы. Статья дополнена как теоретическими, так и практическими рекомендациями.

Ключевые слова: рынок труда, динамические ряды, абсолютный рост, абсолютное снижение, темп роста, безработица, экономически

активное население, экономически неактивное население, базисное сравнение, цепное сравнение, абсолютные величины, относительные величины, трудовые ресурсы, занятость, заработная плата, миграция.

THE IMPORTANCE OF ANALYZING THE DEVELOPMENT TRENDS OF THE LABOR MARKET BASED ON DYNAMIC SERIES

Butanova Dilnoza Rustamovna,
Phd, Associate Professor
Acting Professor, Department of
"Accounting", Mamun University

Annotation. This article highlights the aspects of using the important elements of statistics, focusing mainly on the theoretical and practical aspects of analyzing changes in the labor market through time series. Information is provided on how the use of time series can justify the process of deeply studying the development trends of this market, as well as the unemployment rate. The article is enriched with both theoretical and practical recommendations.

Key words: labor market, time series, absolute increase, absolute decrease, growth rate, unemployment, economically active population, economically inactive population, base comparison, chain comparison, absolute quantities, relative quantities, labor resources, employment, wages, migration.

Kirish.

Statistika doim ommaviy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni o'rganish jarayonida ularning mavjud holati bilan birgalikda ularning vaqt davomida o'zgarish me'yorini ya'ni o'sish va kamayish darajasini ham o'rganadi. Barcha hodisa va jarayonlar vaqt ichida o'zgarib boradi va bu jarayonlarni qayd qilib tahlil qilib borish zarur hisoblanadi. Hodisalarning vaqt bo'yicha o'zgarishini dinamika deb ataladi va ushbu jarayonni ifodalovchi har bir vaqt me'yoriga tegishli ko'rsatkichlar qatori dinamika qatori deyiladi. Dinamika qatorlarining tashkil topishi ikkita elementdan iborat bo'lib, bular muayyan vaqt va unga tegishli ko'rsatkichdir. Mazkur qatorlar vaqtga bog'liq ravishda ko'rsatkichlar tizimini ya'ni ketma - ketligini ifodalaydi. Rivojlanish xususiyatiga ko'ra dinamika qatorlari kuzatilayotgan jarayonga tegishli bo'lgan vaqt me'yori va har bir vaqtga aloqador bo'lgan hodisa me'yoridan iborat bo'ladi. Shu o'rinda mehnat bozorining rivojlanish jarayonlari ham statistikada mehnat bozori statistikasi deb yuritilib boriladi. Mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalarini dinamika qatorlarida aks ettirish ularni tahlil qilish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Mehnat bozori iqtisodiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanish xususiyatlarini chuqur tahlil qilish barqaror makroiqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mehnat bozori ko'rsatkichlarini baholashda dinamika qatorlari, ya'ni vaqt bo'yicha o'zgarishlarni ko'rsatadigan statistik metodlardan keng foydalanila boshlandi. Ushbu metodlarning qo'llanishi iqtisodiy jarayonlarning ichki qonuniyatlarini aniqlash, trendlarni ajratish, mavsumiylikni tekshirish hamda asosli prognozlar ishlab chiqishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Shu tufayli, qariyb XX asrning o'rtalaridan boshlab mehnat bozorining tendensiyaviy xususiyatlarini dinamika qatorlarida aks ettirishga qaratilgan tadqiqotlar yuzaga kelgan. Xususan, bu boradagi dastlabki iqtisodiy adbiyotlar sifatida J.M Keynsning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" [J.M Keyns, 1936] asarida iqtisodiyotdagi o'zgarishlar mehnat bozoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mehnat bozorida talab va taklifning vaqt bo'yicha tebranishi iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, G. Becker, M. Friedman va P. Samuelson mehnat bozoridagi o'zgarishlarni matematik modellashning zarurligini ta'kidlab, ishchi kuchi taklifining demografik va iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini vaqt qatori asosida tahlil qilgan [M. Friedman, 1961]. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda Q. Abdurahmonov mehnat bozori va uning rivojlanishini [Q. Abdurahmonov, 2012], Xolmo'minov Sh.R. mehnat munosabatlarini [Xolmo'minov Sh.R, 2021 keng tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi mehnat bozoridagi o'zgarishlarni baholash maqsadida dinamika qatorlari tahlilidan foydalanish hisoblanadi. Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi yillik statistik bazalaridan olindi. Mavzuni ilmiy o'rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mehnat bozori - ishchi kuchining mehnatga bo'lgan qobiliyatini sotish va sotib olish tizimidir[5].

Mehnat bozori holati doim kuzatilib va uning statistik tadqiqotlari yuritilib borilgan. Xususan, mehnat bozori statistikasida mehnat resurslari statistikasi, iqtisodiy faol aholi statistikasi, bandlar statistikasi, ishsizlik statistikasi tarzida yuritilib boriladi va asosiy maqsad aholining bandlik darajasini oshirish orqali ularning farovonligini ta'minlashga qaratilgan hisoblanadi. Mamlakatning doimiy aholisi iqtisodiy faol va nafaol aholi guruhlariga ajratiladi. Iqtisodiy faol aholi o'z kuchini mehnat bozoriga taqdim

etadi va ish beruvchilar uni sotib oladilar. Iqtisodiy nafaol aholi esa obyektiv sabablar bilan mehnat bozorida ishtirok eta olmaydi.[1]


Mehnat resurslari mohiyatini yoridigan bo'lsak, mehnat resurslari – mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi hamda qonun hujjatlarida belgilangan iqtisodiy faollikning quyi va yuqori yosh chegaralariga kirmaydigan ishlayotgan shaxslar.

$$MR=MQA+IO'P.$$

Iqtisodiy faol aholi esa – mehnat faoliyatining daromad keltiruvchi har qanday turi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek ishga joylashtirishga muhtoj ish bilan ta'minlanmagan aholi. Iqtisodiy faol aholi shuningdek Qurolli kuchlarda xizmatni o'tayotgan shaxslarni ham qamrab oladi.

$$IF=IT+IM$$

Mamlakatimizda mehnat resurslari hajmi domiy ravishda statistikasi yuritilib boriladi. Shu orqali mamlakat mehnat bozoridagi talab va taklif miqdori aniqlanib boriladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari (ming kishi)

Mamlakatimizda yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, mehnat resurslari miqdoran o'sgan qiymatlari namoyon bo'lgan. Mehnat bozori ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilishda dinamika qatorlarida aks ettirish orqali ularni keng miqyosda tahlil qilish mumkin. Chunki dinamika qatorlarida davr ko'rsatkichlari bir qator asoslarda yoritiladi. O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning dinamikasini miqdoriy tomondan baholashda quyidagi statistik ko'rsatkichlar qo'llaniladi: mutlaq o'zgarish; o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati; bir foiz o'zgarishning mutlaq mohiyati. Dinamika qatorlar uzoq muddatli tendensiya, ayrim davrlarga xos siklik yoki lokal o'zgarishlar, kundalik tebranishlar va mavsumiy o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirishi mumkin.

Dinamika qatorlari ko'rsatkichlarini hisoblash ikkita davr darajasini taqqoslash natijasida olinadi. Odatda, taqqoslanadigan daraja sifatida qatorning

birinchi yoki o'zidan oldingi yil darajasi qabul qilinadi. Taqqoslanish usuliga qarab, bu ko'rsatkichlar o'zgaruvchan va o'zgarmas bazali ko'rsatkichlarga bo'linadi. Ularni bazisli va zanjirsimon ko'rsatkichlar ham deb atashadi. Bazisli deyilishiga sabab qatorning barcha hadlari baza deb qabul qilingan bitta had bilan taqqoslanadi. Zanjirsimonda esa har bir taqqoslashda taqqoslash bazasi o'zgarib boradi. Quyidagi jadvalda mamlakatimizda ishsizlik darajasini dinamika qatorlarida aks ettiradigan bo'lsak, ularni tahlil qilingan ko'rinishiga ham ega bo'lamiz. [1- jadval]

1- jadval

O'zbekiston Respublikasida ishsizlar soni (2020-2024 yillar)

yillar	ishsizlar soni	Mutloq o'sishi / kamayish (-,+)		Sur'ati o'sish / kamayish %		Qo'shimcha o'sish / kamayish %	
		Bazis	Zanjirsimon	Bazis	Zanjirsimon	Bazis	Zanjirsimon
2020	1561,0	-	-	-	-	-	-
2021	1441,8	-119,2	-119,2	92,36	92,36	-7,64	-7,64
2022	1332,7	-228,2	-109,1	85,37	92,43	-14,63	-7,57
2023	1024,1	-536,9	-308,6	65,60	76,84	-34,4	-23,16
2024	836,0	-725	-188,1	53,55	81,63	-46,45	-53,55

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rishimiz mumkinki, ko'rsatkichlar dinamika qatorlarida aks ettirilgan bo'lib, ular tahlili orqali ishsizlik darajasining qay darajada o'zgarganligi yaqqol ko'rishimiz mumkin. O'zgarish darajasi tahlili mutloq va nisbiy miqdorlarda aks ettirilganligi sababli ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali ta'sir ko'rsatish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mehnat bozorini doim statistik jihatdan tadqiq qilib borish muhim hisoblangan. Shuningdek, mehnat bozorida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni chuqur anglash va ularni prognozlash, mavsumiy tebranishlarni aniqlash muhimdir va bularni dinamika qatorlari orqali tahlil qilish jarayoni ilmiy- amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu usul mehnat bozori ko'rsatkichlarining — bandlik darajasi, ishsizlik, ish haqi, mehnat resurslari tarkibi va migratsiya jarayonlarining — vaqt davomida qanday o'zgarayotganini tizimli ravishda ko'rsatib beradi. Dinamika qatorlaridan foydalanish orqali qisqa va uzoq muddatli tendensiyalar aniqlanadi, mavsumiy o'zgarishlar ajratiladi, iqtisodiy siyosat natijalari baholanadi va kelajakdagi ehtiyojlar bo'yicha ishonchli prognozlar tuziladi. Bu esa mehnat bozorini samarali boshqarishda samarali ko'maklashiladi.

Adabiyotlar:

1. Soatov N., Nabiev X., Ayubjonov A. "Statistika". Darslik. Toshkent: 2019 yil.-892 bet.
2. Otajanov U.A. "Statistika". Darslik. 2025 yil. Urganch.- 480 bet.
3. Karimov A. Mehnat bozori iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
4. Mamatqulov X., To'xtayev B. Iqtisodiy tahlil va statistika. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Abdurahmonov Q. "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" Toshkent: O'qituvchi, 2001.
6. www.stat.uz–O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Адиба Газиевна Нурулдинова

к.э.н. доцент, зам. директора
Лаборатории социальной политики
при НАСЗ при Президенте РУз,
доцент Ташкентского филиала
РЭУ им.Плеханова

Аннотация. В статье исследованы основные факторы влияющие трудоустройству людей с инвалидностью, для которых быть занятым является не только источником экономического благосостояния, но и путь к определению своего социального статуса. Уровень занятости этих людей остается невысоким, несмотря на меры, предпринимаемые государством. Поэтому для достижения нужного результата предлагается комплексный подход, т.е. создание инклюзивной среды на рабочих местах, развитие профессиональных навыков людей с инвалидностью, в добавок к этому совершенствование законодательства и изменение общественных установок.

Ключевые слова: трудоустройство, инклюзивная среда, законодательство, общественные установки, повышение квалификации, барьеры, дискриминация.

NOGIRONLARNING BANDLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

Adiba Gaziyeвна Nuruddinova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi
Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi
direktor o'rinbosari, i.f.n., dotsent,
Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent shahar filiali dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqiladi, ular uchun bandlik nafaqat iqtisodiy farovonlik manbai, balki ularning ijtimoiy mavqeini aniqlash vositasidir. Hukumat choralariga qaramay, bu shaxslarning bandlik darajasi pastligicha qolmoqda. Shu bois ko'zlangan natijaga erishish uchun qonunchilikni takomillashtirish va ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish bilan bir qatorda, ish

joyida inklyuziv muhitni yaratish, nogironlar uchun kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish kabi kompleks yondashuv taklif etilmoqda.

Kalit so'zlar: bandlik, inklyuziv muhit, qonunchilik, ijtimoiy munosabatlar, malaka oshirish, to'siqlar, diskriminatsiya.

FACTORS AFFECTING EMPLOYMENT OF PERSONS WITH DISABILITIES

Adiba Gaziyeva Nuruddinova

*Deputy Director of the Institute for
Development of Social Protection under
the National Agency for Social Protection,
Tashkent Branch of the Plekhanov Russian
University of Economics*

Abstract: *This article examines the key factors influencing the employment of people with disabilities, for whom employment is not only a source of economic well-being but also a means of defining their social status. The employment rate for these individuals remains low, despite government measures. Therefore, to achieve the desired result, a comprehensive approach is proposed, i.e., the creation of an inclusive environment in the workplace, the development of professional skills for people with disabilities, in addition to improving legislation and changing social attitudes.*

Key words: *employment, inclusive environment, legislation, social attitudes, advanced training, barriers, discrimination.*

В странах с высоким потенциалом демографического дивиденда важное значение имеет трудоустройство молодежи, особенно лиц с инвалидностью (ЛСИ), что соответствует приоритетам государства, направленного на развитие сильной социальной политики. Несмотря на предпринимаемые со стороны государства меры, уровень занятости среди ЛСИ остаётся недостаточно высоким. Кроме того, участие ЛСИ в трудовой деятельности имеет большое значение не только с экономической, но и с социально-психологической и нравственной точек зрения.

Среди факторов, определяющих актуальность исследования, следует отметить, что труд для лиц с инвалидностью (ЛСИ) является не только источником экономической стабильности, поддержания достойного уровня благосостояния. Согласно материалам, подготовленным Международной организацией труда (МОТ) и Организацией экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) [1], 15% населения мира имеют инвалидность. Многие из них сталкиваются с трудностями

при поиске работы из-за различных барьеров, включая дискриминацию, отсутствие доступной инфраструктуры и недостаток навыков.

Для решения этой проблемы предлагается комплексный подход: создание инклюзивной среды на рабочих местах, развитие профессиональных навыков людей с инвалидностью, а также совершенствование законодательства и изменение общественных установок. Кроме того, документ подчёркивает необходимость принятия мер, направленных на обеспечение равных возможностей для всех, независимо от состояния здоровья.

В рамках кабинетного исследования было также изучено исследование ОЭСР[2], которое выявило серьезные препятствия для трудоустройства лиц с инвалидностью в Казахстане. Несмотря на то, что многие из них находятся в трудоспособном возрасте и обладают необходимыми навыками, их участие на рынке труда значительно ниже, чем у людей без инвалидности. Среди ключевых проблем выделяются следующие: устаревшие представления об инвалидности, недостаточная поддержка со стороны государства, дискриминация на рабочем месте и нехватка доступных рабочих мест.

Достойного уровня и качества жизни, но и неотъемлемой частью вторичной социализации, которая во многом определяет успешную интеграцию человека в общество.

Сегодня рынок труда для ЛСИ, как специфический сегмент общего рынка труда, характеризуется значительными деформациями: на фоне высокого процента ЛСИ трудоспособного возраста, их уровень занятости остается низким. По официальным данным, на 1 января 2025 года численность ЛСИ в Узбекистане составляет 1,02 млн. человек[3].

Для выявления основных тенденций, обозначенных выше, Институтом развития социальной защиты было проведено исследование, результаты которого представлены в данном отчёте. Это исследование направлено на изучение барьеров, с которыми могут сталкиваться лица с инвалидностью при поиске работы и трудоустройстве.

В ходе исследования был осуществлен краткий обзор барьеров на рынке труда, проведены опросы на основе страновой выборки и подготовлен отчёт по итогам работы. В данном документе рассмотрены наиболее распространенные проблемы, с которыми сталкиваются лица с инвалидностью на рынке труда, а также предложены рекомендации по улучшению ситуации в исследуемой области.

Результаты опроса показали предложения и мнения относительно мер, высказанные в целях дальнейшего совершенствования рынка труда:

- Большинство предложений сфокусировано на необходимости решения проблем трудоустройства ЛСИ, включая создание

специализированных рабочих мест, обучение новым актуальным профессиям, а также предоставление льгот и поддержки работодателям со стороны государства;

- Значительная часть предложений связана с необходимостью улучшения системы образования для ЛСИ, в том числе предоставления им доступа к обучению новым специальностям и повышению квалификации;

- Высказываются предложения о предоставлении социальной поддержки людям с ограниченными возможностями здоровья, включая финансовую помощь, медицинское обслуживание и психологическую поддержку;

- Отдельно подчеркивается необходимость создания доступной среды, включая адаптацию рабочих мест и общественного транспорта.

По словам представителей организаций, ответственных за обеспечение занятости ЛСИ, большинство лиц с ограниченными возможностями стремятся устроиться на работу и найти свое место в обществе. Однако главными препятствиями для их выхода на рынок труда являются определенные факторы, к примеру, несоответствие имеющихся рабочих мест по типу инвалидности, низкая заработная плата, также во многих случаях, низкое доверие и нежелание работодателей их нанимать. В некоторых случаях работающие ЛСИ также пытаются скрыть свою трудовую деятельность (особенно женщины), опасаясь, что их пособие по уходу за ребенком будет приостановлено.

Лица с инвалидностью, которые не особо стремятся работать, с самого детства остаются на домашнем обучении. Это происходит, потому что родители стесняются показывать общественности своего ребенка с инвалидностью, из-за чего дети не адаптируются в социуме. В результате они предпочитают получать пенсию по инвалидности и "тихо сидеть" дома, чтобы не создавать "лишних проблем" для членов семьи, которые за ними ухаживают.

Несмотря на наличие ряда предложений, соответствующих общей концепции исследования, многие из них носят достаточно общий характер и не содержат конкретных мер, равно как и механизмов их реализации.

Результаты исследования, представленные в данном разделе, показывают наличие ряда важных тенденций и проблем. Согласно результатам анализа, ЛСИ стремятся к активной социальной и профессиональной жизни, однако на пути к реализации своих планов могут сталкиваться с рядом существенных барьеров.

На основе полученных результатов исследования можно сделать следующие выводы:

- Наблюдается разрыв между желаемыми профессиями и имеющимися навыками, что свидетельствует о необходимости внесения

изменений в существующую систему профессиональной подготовки и переподготовки для ЛСИ;

- В плане будущего трудоустройства большая часть респондентов испытывает опасения относительно проблем с адаптацией в рабочем пространстве и возможных дискриминационных факторов;

- Планы и ожидания различных групп ЛСИ демонстрируют существенную дифференциацию, что означает необходимость разработки более гибких программ поддержки;

- Для успешной интеграции ЛСИ на рынке труда необходим комплексный подход, включающий создание доступной среды, развитие системы образования, повышение информированности общества и создания условий для поддержки работодателей.

Несмотря на предпринимаемые государством усилия, уровень трудоустройства ЛСИ остается недостаточно высоким. Для получения более детальной картины относительно причин, препятствующих их успешному трудоустройству, было проведено данное исследование. Результаты показали наличие ряда существенных барьеров, которые препятствуют полноценной интеграции лиц с инвалидностью на рынок труда в Узбекистане. Среди выявленных барьеров можно выделить отсутствие необходимых навыков, стереотипы, опасения потери социальных пособий, дискриминацию и недостатки доступной инфраструктуры.

Представленные результаты подчеркивают необходимость комплексного подхода к решению изучаемой проблемы. Исходя из полученных данных можно сделать заключение, что для повышения уровня занятости ЛСИ требуется совместная работа государства, бизнеса и общественных организаций. Кроме того, необходимо разработать и реализовать специальные программы профессиональной подготовки, содействовать созданию инклюзивной среды на рабочих местах, а также проводить информационные кампании для повышения осведомленности о правах и возможностях ЛСИ.

Полученные данные могут служить основой для разработки более эффективных программ, направленных на улучшение ситуации на рынке труда для лиц с инвалидностью. В этом ключе не менее важно продолжить исследования в данной предметной области, чтобы более глубоко изучить причины существующих проблем и изыскать качественно новые пути их решения.

На основе полученных результатов исследования можно сделать следующие рекомендации:

- Обеспечить более широкий доступ к информации о государственных льготах и тем самым повысить уровень осведомленности

ЛСИ о своих правах и возможностях, включая предложения, предоставляемые различными платформами, которые способствуют трудоустройству.

- Провести дополнительные исследования для более глубокого изучения предметной области, в том числе сравнительных исследований для выявления различий на рынке труда среди лиц с инвалидностью и без нее.

- Разработать программы тренингов для ЛСИ, включая обучение поиску каналов трудоустройства, составлению резюме, прохождению собеседований и другим аспектам поиска работы.

- Организовать информационные кампании среди работодателей о преимуществах найма людей с инвалидностью, а также предоставить консультации по адаптации рабочих мест.

- Усилить профориентационную работу среди ЛСИ с целью оказания помощи им более точно определиться с будущей профессией, что в свою очередь поможет найти подходящую работу.

- Необходима систематизация опыта успешных компаний, внедривших практики инклюзивного трудоустройства и рекрутинга;

- Государственная поддержка должна быть более гибкой и доступной. Эффективность господдержки для бизнеса должна анализироваться на основе регулярно собираемых административных данных и исследований (качественных и количественных) об используемых субсидиях, налоговых льготах и других преференций бизнесом.

- Требуется развитие корпоративной культуры и обучение HR;

- Важно учитывать мнение самих людей с инвалидностью и их репрезентативных общественных организаций при формировании политики в сфере инклюзивного трудоустройства в Узбекистане.

Adabiyotlar:

1. *Labor market inclusion of people with disabilities* // ILO URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40odgreports/%40inst/documents/publication/wcms_646041.pdf

2. *Building Inclusive Labour Markets in Kazakhstan: a Focus on Youth, Older Workers and People with Disabilities* © OECD 2017 <https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/9789264273023-8-en.pdf>

3. Данные Национального агентства социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан

AHOLINI RO'YHATGA OLISHDA DUNYO TAJRIBASI

Matkarimova Intizor Atabaevna

“Ma'mun universiteti” Nodavlat ta'lim muassasasi,

“Buxgalteriya hisobi” kafedrası,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) dotsent

Xiva, O'zbekiston

E-mail: intizor-matkarimova@mail.ru

Annatatsiya. Mazkur maqolada, xorijiy davlatlar tajribalariga ko'ra aholini ro'yxatga olish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, aholini ro'yxatga olish tarixi, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining davlat dasturlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, dunyo mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishning turli usullari – an'anaviy, onlayn, registrlarga asoslangan va gibrid usullar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Aholini ro'yxatga olish, aholini ro'yxatga olish dasturi, shaxs, yoshi, jinsiy tarkibi, fuqaroligi, milliy tarkibi, mahalla ettiligi, census.stat.uz

МИРОВОЙ ОПЫТ В ОБЛАСТИ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ

Маткаримова Интизор Атабаевна

кандидат экономических наук (PhD) доцент кафедры

“Бухгалтерский учет” НОУ “Университет Мамуна”

Хива, Узбекистан

Аннотация. В данной статье на основе опыта зарубежных стран представлены аналитические данные по переписи населения, рассмотрена и проанализирована история проведения переписей населения, а также значение мероприятий по переписи населения и сельского хозяйства в разработке государственных программ. Кроме того, с учётом опыта стран мира обсуждаются различные методы проведения переписи населения в Республике Узбекистан — традиционный, онлайн, основанный на регистрах и гибридные методы.

Ключевые слова: Перепись населения, программа переписи населения, личность, возраст, половозрастной состав, гражданство, национальный состав, махаллинская семья, census.stat.uz

WORLD EXPERIENCE IN THE FIELD OF POPULATION CENSUS

Matkarimova Intizor Atabaevna

Candidate of Economic Sciences (PhD),

Docent at the department "Accounting",

Non-state educational institution "Mamun University"

Khiva, Uzbekistan

Abstract. *This article, based on the experience of foreign countries, presents analytical data on population censuses, examines and analyzes the history of conducting population censuses, as well as the importance of population and agricultural census activities in the development of state programs. In addition, taking into account the experience of countries around the world, various methods of conducting population censuses in the Republic of Uzbekistan are discussed — traditional, online, register-based, and hybrid methods.*

Keywords: *Population census, population census program, individual, age, age-sex composition, citizenship, national composition, the mahalla seven, census.stat.uz.*

Kirish.

Aholini ro'yxatga olishda yig'ilgan ma'lumotlar tahlili orqali dunyo nufusining umumiy, keng ko'lamlı qiyofasi yaratiladi. Hozir aholini ro'yxatga olish ishlari BMT tavsiyalari asosida ko'plab davlatda amalga oshiriladi.

Davlatning asosiy manbai — xalq haqida aniq ma'lumotga ega bo'lmay turib, zamonaviy davlatni barpo etish imkonsiz. Zero, aholi haqidagi aniq tiniq ma'lumotlar resurslardan oqilona foydalanish va to'g'ri taqsimlashga katta zamin yaratadi. Shuning uchun aholining tarkibi, iqtisodiy faolligi, ta'lim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish har bir davlat oldidagi asosiy vazifadir. Jumladan, mamlakatda qancha odam borligi haqida emas, balki migrantlar qaerdan kelib, qaerga ketayotgani, yosh va jins tarkibi kabi ko'plab ma'lumotlar islohot o'tkazayotgan hukumatlar uchun juda muhim.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng aholini ro'yxatga olish zarurati haqida bundan sakkiz to'qqiz yil avval yuqori minbarlarda aytila boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrda imzolangan PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmon bilan tadbirning o'tkazilishi rasman tasdiqlandi. Bu hujjat xalqaro standartlarga asoslangan bo'lib, Yevropa statistika konferensiyasining 2020-yilgi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.[2] Shuningdek 2025 yil 7 oktyar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini

ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish chora- tadbirlari to'g'risida"gi № 629-sonli qarori qabul qilindi.[3]

BMT aholini kamida 10 yilda bir marta ro'yxatga olishni tavsiya qiladi. Zero, ro'yxatga olish milliy siyosatni ishlab chiqish va rejalashtirish, shuningdek, mamlakat rivojlanishini kuzatish uchun asosiy axborotlar taqdim etilishini ta'minlaydi. Fuqarolarning turar joy, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimkechak, tibbiy uskunalar va dori-darmon, ijtimoiy xizmatlar, ish o'rinlariga ehtiyojiga doir muhim ahamiyatga ega axborotni aholi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar asosidagina aniqlash mumkin.

Aholi ro'yxatga olishning asosiy vazifalari:

- Mamlakatdagi aholi sonini aniqlash;
- Demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni aniqlash.

Ro'yxatga olishdan olingan ma'lumotlar:

- mehnat resurslarini baholash;
- aholi tarkibi va ijtimoiy holatini o'rganish;
- turli aholi guruhlari (ayollar, bolalar, yoshlar, pensionerlar va boshqalar) uchun davlat dasturlarini ishlab chiqishda asos bo'ladi

Aholini ro'yxatga olishda har bir fuqaro haqida ma'lumotlar to'planadi: yosh, jins, millat, oilaviy ahvol, ta'lim darajasi, bandlik, yashash joyi va boshqalar. Bu ma'lumotlar aholi soni, tarkibi va ehtiyojlarini aniqlashda xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bu ro'yxatga olish turi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ma'lumotlarni qamrab oladi: yer maydoni, ekin turlari, hayvonlar soni, texnika, suv resurslari, mehnat kuchi va boshqalar. Bu ma'lumotlar qishloq xo'jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va fermerlarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish uchun zarur.

Aholini ro'yxatga olish qachondan o'tkazila boshlangan?

Aholini dastlabki ro'yxatga olish qadimgi Gretsiya, Vavilon, Mesopotamiya, Rim, Xitoy, Yaponiya va Misrda o'tkazilgan. Lekin, bu aholi ro'yxatlarining maqsadi aholidan soliq yig'ish, ya'ni boj olish hamda harbiy maqsad uchun aholi sonini aniqlash bo'lgan.1-rasm Shuning uchun ham, bu aholi ro'yxatlarida asosan erkaklar ro'yxatga olingan. Chunki, u paytlarda erkaklarning iqtisodiy o'rnini yuqori bo'lgan, soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari qatnashgan. Aholini eng birinchi rasmiy ro'yxatga olish 1790 yilda AQShda, keyinchalik 1800 yilda Shvetsiya va Finlyandiyada, 1801 yilda – Angliya, Daniya, Norvegiya va Fransiyada o'tkazilgan. Ammo, bu aholi ro'yxatlari juda oddiy shaklda hamda uzoq muddatga cho'zilgan. Masalan, birinchi AQShda aholini ro'yxatga olish ishlari 18 oy davomida olib borilgan. XIX asrga kelib, aholini ro'yxatga olish juda kengaydi. Qator Yevropa mamlakatlarida statistika tashkilotlari tuzildi.



1-rasm. Aholini ro'yxatga olish tarixi

Aholini ro'yxatga olish ilmiy dasturlar asosida olib borilishi yo'lga qo'yildi. Xususan, 1870-1879 yillarda dunyoning 48 ta, 1890 yillarda esa 57 ta davlatida aholi ro'yxati o'tkazilgan. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizi ro'yxatga olingan bo'lsa, XX asr boshida 54 foiz aholi ro'yxatdan o'tkazilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin, aholini ro'yxatga olish tizimi yanada takomillashtirildi. 1945-1954 yillarda – 151 ta davlatda, 1965-1974 yillarda – 179 ta davlatda aholi ro'yxati o'tkazilgan. Hozirgi paytda, dunyodagi deyarli barcha davlatlarda aholini ro'yxatga olish ishlari olib borilmoqda.

Xalqaro statistiklarning Sankt-Peterburgdagi 1872 yilgi kongressida birinchi marotaba davlatlar har 10 yilda kamida bir marotaba aholini ro'yxatga olishni o'tkazishini tavsiya etgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015 yil 10 iyundagi «2020 yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar» rezolyusiyasiga tayanib, a'zo-davlatlarni 2020 yilda Butunjahon aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish dasturi doirasida kamida bir marotaba ro'yxatga olishni o'tkazishni qat'iy da'vat etadi.

Xo'sh O'zbekistonda va chet davlatlarda aholini ro'yxatga olish qachondan o'tkazila boshlangan?

Statistika ko'p asrlik tarixga egadir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra eramizdan 3500 yil ilgari Misrda aholi hisobi (ro'yhati) o'tkazilgan. Rossiya (Moskva)da ikki marta (1362 va 1389 yillarda) aholi ro'yhati o'tkazilgan. XV asrda Moskvada “Mirza daftarlari” nomi bilan ma'lum bo'lgan maxsus statistik to'plamlar tuzilgan. Pyotr 1 davrida “Aholi taftishi” nomi bilan mashg'ur bo'lgan soliq to'lovchi aholi ro'yhati o'tkazila boshlangan. Jami 10 marta taftish (oxirgilari 1857-1860 yillarda) o'tkazilgan. Ulardagi ma'lumotlar XVIII

va XIX asrning birinchi yarmida Rossiya aholisining sonini tavsiflovchi yagona manba bo'lib hisoblanadi[1].

Aholi soni butun yer shari bo'yicha BMTning ma'lumotiga ko'ra 1997 yili 5840 mln kishi, va 2050 prognozi bo'yicha 9833 mln kishi. Bu ko'rsatkich ko'pmi yoki kammi? Ko'pgina olimlar va jamoachilik bugun, kecha, yuz yil xattoki ming yillar ilgari ham aholi soni ko'payib ketgan. (), bunga sabab, aholi o'sishi. Ularni fikricha aholi soni "nazoratsiz" stixiyali o'sishidir. Xali birorta olim yer sharida aholi ko'pligiga aniq ma'lumotlar asosida tasdiqlab bermagan (lekin og'zaki har xil fikrlarni tasdiqlashgan). Besh (5) milliard (9) milliard yaxshi emas va yomon ham emas. Shunga asosan bir maqol keltirsak "Bir dona soch ko'pmi yoki ozmi"? Javob, "qaerdaligiga bog'liq. Boshda kam, ovqatda ko'p".

Iqtisodiyot va ilimni rivojlanish natijasida xayotni resurslar bilan ta'minlanishi yer sharida to'xtovsiz oshib bormoqda. Fransuz yozuvchisi 1781 – yil o'zining "Amerikanskaya Revolyutsiya" kitobida Amerikada yashash imkoniyati agar AQSh aholisi qachondir 10 mln kishini tashkil etganda, u holda bu yerlarda inson ovqatlana olsa, bu juda zo'r ish bo'lar edi. Mamlakat o'zini qiyinchilik bilan ta'minlayotgan vaqtda, aholini bunday o'sishi, yashash darajasi va iqtisodiyotniki qattiq chegaralash va tabiiy resurslariga asoslanishi mumkin. Shuni etilgan vaqtdan 2000 yildan ortiq vaqt o'tdi. Xozirgi kunda aholi soni 3 mlndan 270 mlngacha oshgan (1998 yil). AQSh davlati eng boy davlalardan biri (2015 yil). O'ylashimizcha dunyodan eng katta davlatlardan biri hisoblanardi. Bunday davlatlar qatoriga Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Indiya, AQSh davlatlarida aholi turmush darajasi yuqori. Afsuski so'ngi yillarda (XX asr) dunyoda aholini o'sish darajasi 1960 yildan keyin kamayib bormoqda. Masalan 1960 yil o'sish 2.04% o'sgan bo'lsa, keyingi yillarda 1.3% prognoz bo'yicha 2050 yildan 0.47% kamayishi mumkin. Bu esa hali ham o'sish darajasi mavjud. Lekin ko'pgina davlatlarda demografik depopulyatsiya holatiga uchramoqdalar. Masalan Latviya – 1990 yilda, Belorusiya va Ukraina – 1998 yildan, Bolgariya – 1993, Rumuniya – 1991 yilda, 2000-yildan keyin Belgiya, Germaniya, Ispaniya, Shvetsariya, 2005 – yildan keyin Yaponiya. Rossiyada 1992 – yildan 2 mln kishiga 15 mayda BMT prognoziga ko'ra 2050 yilga Rossiya aholisi 1992 yilga nisbatan 26,9 mln kamaydi yoki 18%.

Yurtimizda umummilliy ro'yxatga olish oxirgi marta 1989 yilda o'tkazilgan. So'nggi yillarda bu yo'nalishda qator ishlar bajarildi. Jumladan, "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib,[1] fuqarolarni har 10 yilda, qishloq xo'jaligini esa har 5 yilda kamida bir marta ro'yxatdan o'tkazish belgilangan. Shu bois, 2021 yilda aholini, 2022 yilda esa qishloq xo'jaligini sinov tariqasida ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazildi. Lekin to'laqonli ro'yxatga olish

jarayonini o'tkazish uchun zarur omillar va xalqaro tajribalarni o'rganish hamda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish muayyan muddatni talab etishi bois, bu tadbir keyinga qoldirilgan edi. Joriy yilda Prezidentimiz huzurida ushbu tadbirni tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda xalqaro tajribaga asoslanib, Jahon banki, UNFPA va FAO tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilgan aholi va qishloq xo'jaligini bir vaqtda ro'yxatdan o'tkazish taklifi ko'rib chiqildi. Mazkur taqdimotda O'zbekistonda ro'yxatdan o'tkazish tadbirlari 2026 yil 15 yanvardan 28 fevralga qadar o'tkazilishi ma'lum qilindi. Aholini ro'yxatdan o'tkazish dastlabki 17 kun davomida internet orqali, keyingi bir oyda esa "mahalla yettiligi" tomonidan uyma-uy yurib amalga oshiriladi. Ushbu usul natijasida xarajat sezilarli qisqarib, 1,3 trillion so'm mablag' tejaladi. Shuningdek, ro'yxatga olish jarayoni oddiy va shaffof tarzda tashkil etiladi. Savollar soni avval rejalashtirilgan 328 tadan 71 taga qisqartirildi. Ro'yxatga olish natijasida Yevropa statistikasi konferensiyasining 2020 yildagi tavsiyalari asosida 38 million kishining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati, chorva mollari va parrandalar soni aniqlanadi. Bu orqali qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan yillik 25,6 trillion so'm, jumladan, 2,2 trillion so'm byudjet mablag'i samaradorligi, sohadagi xizmatlar hajmi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur ma'lumotlar to'planadi. Ro'yxatga olish jarayonini samarali amalga oshirish uchun "mahalla yettiligi" maxsus o'quv dasturi asosida tayyorlanadi va rag'batlantiriladi. Buning uchun Jahon banki ko'magida amalga oshirilayotgan statistika tizimini mustahkamlash loyihasi mablag'lari yo'naltiriladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ibot yo'lga qo'yiladi va shu orqali fuqarolarning xabardorligi oshiriladi

Adabiyotlar sharhi.

Ko'p yuz yillar davomida taniqli olimlar dunyo bo'yicha aholini optimal sonini aniqlashga harakat qilib ko'rishgan (aholi turmush darajasi, aholi zichligi va boshqalar) va aniqlay olishmagan. Aholini va resurslarni o'sishi orasidagi bog'liqlik bu nisbiy va o'zgaruvchan. Darhaqiqat, Ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus o'zining mashhur «Nufus qonuni» ya'ni «Aholi nufus qonuni to'g'risida tajriba» asarida, aholi soni juda tez ko'payib boradi, oziq – ovqat mahsulotlarning o'sishi esa, ancha orqada qolib ketadi deb ishontirishga uringan. U aholining ko'payishini cheklovchi muayyan chora – tadbirlar qo'llanilmasa, insoniyat ocharchilikka duch keladi deb xulosa qiladi va bunday vaziyatdan chiqishning ikki yo'lini taklif etadi: birinchisi-

epidemiylar, urushlar, kasalliklar natijasida aholining kamayishi va boshqalar, ikkinchi yo'l –nikohdan voz kechish yoki kech yurmush ko'rish, tug'ilishni kamaytirish deya ta'kidlaydi.[4]

Hozirgi zamon iqtisodchilari uning ijtimoiy siyosatning ahamiyatiga bergan bahosiga qo'shilmaydilar. Mehnatga yaroqsiz va kam ta'minlangan aholini qo'llab quvvatlash hozirgi zamonaviy jamiyat iqtisodiy siyosatining zarur qismidir. Darhaqiqat, O'zbekistonlik Nyu York Universiteti professori taniqli iqtisodchi olim Behzod Hashimov ijtimoiy tarmoqlarda bergan intervyusida ham «har bir odam qiymat yaratuvchi (samaradorlik oshishi) mavjudod ya'ni shuni Maltus hisobga olmagan» deb ta'kidlab o'tadilar.[11]

Aholi sonini birinchi marta bashoratlash turli mamlakatlarda aholining ikki marta ko'payish davrini aniqlashga qaratilgan. Ingliz iqtisodchisi D. Graunt, «Londonda o'limni kuzatish» asarining muallifi, XVII asr boshida Angliya aholisining ikki marta ko'payish davrini hisoblab, uni 280 yil ekanini aytgan. Statistika asoschilaridan biri V.Petti Angliya aholisining kamroq o'sishini nazarda tutib, bu davrni 360 yil deb atagan. U boshqa mamlakatlarda aholining ikki marta ko'payish davri Angliyadagidan ancha farqlanishini aytgan.

XVII asrning ajoyib matematigi L.Eyler, aholining ikki marta ko'payish davri 12,5 yil ekanini aytgan. Bunday o'sish sur'ati har qanday mamlakat aholisining o'sishidan yuqori bo'lsa ham, Eylerning nazariy fikrlari bashoratlash rivoji uchun juda muhim hisoblanadi.

Ingliz iqtisodchisi va statistiki G.King (XVII asr o'rtasi) V.Petti ishini davom ettirib, bashoratlashga boshqacha yoshdashgan. U o'z bashoratiga, aholi sonining o'sishi arifmetik progressiya bo'yicha amalga oshishini asos qilib olgan. Shu gipoteza asosida, Angliya aholisining 600 yil davomida o'sishi bashoratlangan, lekin uning noto'g'ri ekani aniqlandi: 1800 yilda Angliya aholisi King nazarda tutganga nisbatan 1,5 marta ko'p bo'lgan.

Agar avvallari bashoratlash, asosan, hozirgi aholi sonini keyingisi bilan solishtirishga asoslangan bo'lsa, hozirgi davrda butun dunyoda bashoratlashda boshqa nozikroq usullarni qo'llash lozimligi aytilmoqda. Avvaldan ko'ra bilish, barcha aholi soni o'zgarishiga va uning ayrim guruhlari soni o'zgaruviga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni taqozo qiladi.

Mantiqiy egri chiziq asosida aholi sonini bashoratlash haqidagi fikrni XIX asr boshida R.F.Ferxlyuster taklif etgan; XX asr boshlarida amerikalik olimlar L.Rida va Pirlya bu fikrlarni yanada rivojlantirganlar. Pira – Rid nazariyaga asosan, mantiqiy egri chiziqda aholi o'sish sur'ati bilan uning mutlaq soni orasida aloqa o'rnatilgan.

Germaniyada qiyosiy statistika asoschilari hisoblangan A.L. Shletser (1735-1809) va A. Nimanlarning (1761-1832) asarlari aholi statistikasiling

rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ularning aholiga doir yondashuvlariga ko'ra, davlatning farovonligi aholi soni va ularning iqtisodiy faoliyatining doimiy tarzda o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Bulardan tashqari, aholi dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondashuvlar siyosiy arifmetikachilar hisoblangan V. Petti (1623-1687), J. Graunt (1620-1674) va E. Galley (1656-1742) kabi olimlar asarlarida ham kuzatiladi.

Yana bir ingliz olimi V. Petti aholi va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sir nazariyasi rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shgan, u XVII asrning eng yirik nazariyotchi- iqtisodchilaridan biri bo'lgan. U mamlakat aholisini davlatning asosiy boyligi, "inson kapitali", deb hisoblagan.

O'zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi o'z tarixiga ega bo'lib, tarixchi va aholishunos olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Respublikada demografiya fanini rivojlantirishda, ayniqsa M.Q. Qo'raxonovning hissasi katta, keyingi demografik jarayonlar ustida ko'plab tadqiqotlar o'tkazgan O'zbek olimlar qatoriga I.R. Mullajonov, R.A. Ubaydullaeva, O.B. Otamirzaev, L.P. Maksakova, D.B. Bobojonova, M.B. Bo'rieva va boshqalar ham katta hissa qo'shganlar.[6, 7, 8]

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosini iqtisodchi olimlarning adabiyotlari hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning aholi ro'yxatga olish bo'yicha ilmiy yondashuvlari, shuningdek, aholini ro'yxatga olishni samarali o'tkazish bo'yicha xalqaro uslubiyotlar, mezonlar tamoyillar tashkil etadi. Mavzuni o'rganish jarayonida statistik kuzatish, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, ilmiy abstraksiyalash, statistik rasm va jadvallar usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aholi soni bo'yicha davlatlar ro'yxati 2025 yil 19 dekabr holatiga Hindiston davlati eng boy davlalardan biri hisoblanadi. Chunki u aholi soni bo'yicha Xitoy va AQSH davlatlarini ilgarilab ketdi. 1-jadvalda keltirilgan. Bugungi kunda Yer sharida 8,263 milliarddan oshiq odam yashamoqda. Shuning qariyb 35 foizi ikkita mamlakat – Xitoy va Hindistonga to'g'ri keladi (2025 yil). Aholisi eng tez o'sayotgan davlatlar asosan Afrika va Yaqin Sharqdagi mamlakatlar (masalan, Kongo Demokratik Respublikasi) hisoblanadi, bu yerda aholi soni 2080-yilga qadar ikki baravar ko'payadi, Hindiston, Xitoy, AQSh, Indoneziya va Pokiston kabi davlatlar yetakchi o'rinlarda turishadi.

1-jadval

Eng ko'p aholiga ega bo'lgan davlatlar ro'yxati 2025 -yil

O'rin	Davlat	Aholi soni (taxminan, dekabr 2025)	Jahon aholisidagi ulushi (%)
1	Hindiston	1,464 million	17,7%
2	Xitoy	1,415 million	17,1%
3	AQSh	345 million	4,2%
4	Indoneziya	286 million	3,5%
5	Pokiston	255 million	2,9%

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra 2010 yil raundida ishtrok etgan butunjahon aholini ro'yxatga olish tadbiri 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Aholini ro'yxatga olish 2010 yil raundi butunjahon aholini ro'yxatga olish tadbiri

Aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan yil	Afrika	Shimoliy Amerika	Janubiy Amerika	Osiyo	Evropa	Okeaniya	Jami
2005	1	2	1	6	1	3	14
2006	6	4	2	4	3	8	27
2007	5	1	1	2	-	2	11
2008	7	-	-	3	1	1	12
2009	5	-	-	4	3	3	15
2010	5	14	3	12	5	4	43
2011	4	12	2	6	33	3	60
2012	5	2	5	2	1	1	16
2013	5	1	-	-	1	-	7
2014	6	-	-	2	1	-	9
Jami:	49	36	14	41	49	25	214

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra Belarus Respublikasining 2019 yil aholini ro'yxatga olish tadbirining dastlabki natijalarini ham tahlil qiladigan bo'lsak 3-jadvalda keltirilgan

Belarus Respublikasining 2019 yil aholini ro'yxatga olish tadbirining dastlabki natijalarini tahlilini keltirib o'tamiz. 2022 yil 31- yanvardan 5-fevralgacha Minsk shahrida aholini ro'yxatga olish bo'yicha Belarus Respublikasi tajribasini o'rganish yuzasidan o'quv seminarlari tashkil etildi Statistika Agentligida (qayta tashkil etildi Milliy Statistika Qo'mitasi 2025 yil)

3-Jadval

Belarus Respublikasining 2019 yil aholini ro'yxatga olish tadbirining dastlabki natijalari

	Joriy hisob bo'yicha 2019 yil 1 oktyabr holatiga aholi soni	Belarus Respublikasining aholini ro'yxatga olish natijalari bo'yicha 2019 yil 1 oktyabr holatiga aholi soni
Belarus Respublikasi	9454790	9413446
<i>viloyatlar:</i>		
Brest	1 379 456	1 348 115
Vitebsk	1 164 554	1 135 731
Gomelsk	1 405 873	1 388 512
Grodnensk	1 0360 529	1 026 816
Minsk sh.	1 986 572	2 018 281
Minsk	1 432 480	1 471 240
Mogilevsk	1 049 326	1 024 751

Mazkur uchrashuvlar BMT Aholishunoslik jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi (UNFPA) hamkorligida o'tkazildi. O'quv seminarlarda Statistika Agentligi (qayta tashkil etildi Milliy Statistika Qo'mitasi 2025 yil) Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi hodimlari, Axborot xavfsizligi boshqarmasi hodimi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi hodimlari hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va UNFPA vakillari ishtirok etishdi. Uchrashuvlar davomida O'zbekiston Respublikasida 2021- yil noyabr oyida o'tkazilgan aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish natijalari asosida uslubiy va huquqiy normativ hujjatlari, aholini ro'yxatga olish dasturi, birlamchi ma'lumotlarini elektron bazaga kiritish bo'yicha axborot tizimini takomillashtirish hamda aholini ro'yxatga olishda planshet qurilmalaridan foydalanish kabi qator dolzarb masalalar bo'yicha bilim va tajribalar muhokama qilindi.

Minsk shahrida o'tkazilgan mazkur uchrashuvning Statistika Agentligi (qayta tashkil etildi Milliy Statistika Qo'mitasi 2025 yil) uchun muhim ahamiyati shundaki, mamlakatimizda 2026- yilda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbirlarini tashkil etishda MDH davlatlari, jumladan, Belarus Respublikasi tajribasini o'rganish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot tariqasida, 2010 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlariga sarflangan xarajatlar qiymati o'rtacha aholi jon boshiga Tojikistonda 1,31 AQSh dollarini, Qirg'izistonda 1,12 AQSh dollarini, Ozarbayjonda 1,03 AQSh dollarini, Moldovada 2,15 AQSh dollarini, Rossiya Federatsiyasida 3,81 AQSh dollarini tashkil etgan. Asosiy e'tibor mazkur davlatlarda 2019 yilda bo'lib o'tgan aholini ro'yxatga olishning natijalari, jarayonlardagi muammo va kamchiliklarni o'rganishga qaratildi.

4-Jadval

Aholini ro'yxatga olishda xorijiy davlatlar tajribasi

Nº	Mamlakatlar nomi	O'tkazilgan yil	Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning qo'llanilish darajasi
1	Belarus Respublikasi	4-30 oktyabr 2019 -yil	Belarus Respublikasi aholini ro'yxatga olishda yangi, kombinatsiyalashgan (aralash) usulni joriy etdi. Bu yangi yondashuv orqali aholining ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash jarayoni ancha soddalashtirildi va samaradorlik oshirildi. Fuqarolar o'z ma'lumotlarini davlat statistika idorasi (Belstat) rasmiy veb-sayti orqali maxsus platformada mustaqil ravishda kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi.
2	Ozərbayjon Respublikasi	1-10 oktyabr 2019-yil	An'anaviy usul – yuzma-yuz so'rov va planshetlardan foydalanilgan, asosiy e'tibor ma'lumotlar to'plashning zamonaviy usullariga qaratilgan bo'lib, samaradorlikni oshirish maqsad qilingan, lekin eng muhimi – aholini an'anaviy usullar orqali jalb qilish orqali rejalashtirish uchun aniq demografik ma'lumotlar olishgan, planshetlardan foydalanilgan, asosiy diqqat e'tibor ma'lumotlar to'plash sifati va jarayonni tashkil qilishga qaratilgan bo'lib, aholining aniq manzarasini olish maqsad qilingan.
3	Turkiya Respublikasi	31 dekabr 2007- yil	An'anaviy usuldan voz kechilib, manzilga asoslangan aholi ro'yxati tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali aholi haqida zarur barcha demografik ma'lumotlar davlatning mavjud registrlari va elektron ma'lumotlar bazalaridan olinadi
4	Germaniya Respublikasi	15 may 2022- yil	Bu jarayonda aralash yondashuv qo'llanilgan: onlayn-anketalar, intervyuierlarning yuzma-yuz tashriflari, shuningdek ma'muriy registrlardan olingan ma'lumotlarga tayanish orqali jarayonni innovatsionroq va aholi uchun kamroq yuk bo'lishiga erishilgan.
5	Rossiya Federatsiyasi	15 oktyabr-14 noyabr 2021 -yil	Innovatsiyalar raqamli texnologiyalarni, «Davlat xizmatlari» (EPGU) portali orqali ro'yxatga olish varaqalarini onlayn tarzda mustaqil to'ldirish imkoniyatini o'z ichiga olgan, ro'yxatga oluvchilar qog'oz anketalar o'rniga planshetlardan foydalanganlar, shuningdek ro'yxatga olishni Ko'p funksiyali markazlarda (MFS) o'tash mumkin bo'lgan.
6	Tojikiston Respublikasi	1-15 oktyabr 2020-yil	2020 yilda birinchi marta internet-so'rov, planshetlar orqali ma'lumotlar to'plash (CAPI) kabi innovatsion usullar qo'llanilgan, shu bilan birga an'anaviy qog'oz anketalar bilan birga raqamli va qog'oz texnologiyalarini birlashtirib, samaradorlikni oshirish maqsad qilingan.
7	O'zbekiston Respublikasi	15 yanbar- 28 fevral 2026- yil (rejalashtirilgan)	O'zbekistonda milliy an'analar va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligida innovatsion yondashuv – "mahalla yettiligi" modeli asosida ish olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Yangi O'zbekistonning boshqaruv tizimida mahalla nafaqat ijtimoiy institut, balki aholini tizimli ravishda qamrab olish va tahlil qilishda muhim darvoza vazifasini o'tamoqda.
8	Amerika Qo'shma Shtatlari	1 aprel 2020-yil	Qonunga ko'ra, AQShning barcha aholisi ro'yxatga olishda ishtirok etishlari shart. Odamlarning shaxsiy hayotini himoya qilish uchun aholini ro'yxatga olish orqali to'plangan barcha shaxsiy ma'lumotlar 72 yil davomida maxfiydir. AQSh aholini ro'yxatga olish byurosi millat xalqi va iqtisodiyoti haqida ma'lumot beradi. Har 10 yilda u qo'shma Shtatlardagi har bir Rezidentni ro'yxatga olishni o'tkazadi.
9	Xitoy Xalq Respublikasi	1 noyabr-10 dekabr 2020 -yil	Mobil ilovalar orqali ro'yxatga oluvchilar ma'lumotlarni real vaqt rejimida markaziy serverlarga uzatdi, fuqarolar uchun onlayn o'zini o'zi ro'yxatdan o'tkazish platformasi ishlab chiqildi, GPS texnologiyalari yordamida ro'yxatga olinmagan hududlar tezkor aniqlab borildi, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy maxfiylik qattiq nazorat ostiga olindi.

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi ya'ni raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning qo'llanilish darajasi 4-jadvalda keltirilgan.

AQShda aholini ro'yxatga olish har bir shtatdagi hududlar chegaralarini yangilab, hukumatga byudjetni rejalashtirishda qaysi sohalarga ko'proq mablag' ajratish kerakligini tushunishga yordam berdi. AQSh Konstitutsiyasiga ko'ra, har bir fuqaro aholini ro'yxatga olishda ishtirok etishi shart. Mamlakat 72 yil davomida ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlab kelmoqda. AQShda aholini ro'yxatga olish har 10 yilda o'tkaziladi. Undagi ma'lumotlar nafaqat davlat siyosati, balki iqtisodiy investitsiyalar taqsimoti uchun ham asos bo'ladi. Ro'yxat natijalari Kongressdagi vakolatlar taqsimotini ham belgilaydi. Ro'yxatga olish jarayonida internet orqali yoki telefon qo'ng'irogi bilan ham qatnashish mumkin. 2020 yilgi AQShdagi ro'yxatga olishda 330 milliondan ortiq inson qatnashgan va bu mamlakat tarixidagi eng yirik statistik tadbir bo'lgan.

Fransiyada aholini ro'yxatga olish har yili, lekin turli hududlarda navbatma-navbat amalga oshiriladi. Bu usul natijalarni doim yangilab turish imkonini beradi. Har yili aholining taxminan 9–10 foizi qamrab olinadi. Fransiyada 1801 yildan beri biron yil ham ro'yxatga olishsiz o'tmagan.

Germaniyada aholini ro'yxatga olish aholi to'g'risidagi demografik ma'lumotlarni yangilash va odamlarning yashash sharoitlari haqida ko'proq ma'lumot olish maqsadida o'tkaziladi. Oxirgi aholini ro'yxatga olish 2021 yilda o'tkazilgan. Ushbu protsedura mamlakat fuqarolari va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun majburiydir. Shuningdek, Germaniyada aholini ro'yxatga olish

ma'lumotlari shaharsozlik, ta'lim muassasalarini joylashtirish, pensiya tizimini rejalashtirish uchun qo'llaniladi.

Yaponiyada aholini ro'yxatga olish 5 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda har bir kishi elektron identifikatsiya orqali hisobga olinadi, natijalar davlat rejalashtiruvda foydalaniladi.

Xulosa va takliflar.

Aholini ro'yxatga olish orqali to'plangan ma'lumotlar ijtimoiy himoya, investitsiya, uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, turizm, ta'lim, yo'l qurilishi va infratuzilma kabi barcha yo'nalishda manzilli dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini ro'yxatga olish natijalari kelgusida hukumatga ushbu dasturlarni amalga oshirish natijalarini baholash, iqtisodiy prognozlash va demografik siyosatni shakllantirishda qo'l keladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin, aholi va qishloq xo'jaligini bir vaqtda va integratsiyalashgan holda royxatga olish O'zbekiston Respublikasi uchun nafaqat moliyaviy tejamkorlik, balki zamonaviy statistika

tizimiga o'tish, davlat boshqaruvida ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va fuqarolar bilan muloqatni kuchaytirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonuni. 16.03.2020 yildagi O'RQ-611-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.09.2025 yildagi PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"
3. 2025 yil 7 oktyar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish chora- tadbirlari to'g'risida"gi № 629-sonli qarori
4. Sh. X. Tashmatov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 -504 b.
5. Abdullayev Yo. Statistika nazariyasi. Darslik.-T.: "Oqituvchi", 2002 -592 b.
6. I.A. Matkarimova, Egamov B.N. (2023). "O'zbekiston hududida aholini ro'yhatga olish tarixi va bugun". Ma'mun science" jurnali. ISSN 2181-0000. DOI Journal 10.26739/2181-0000. 1-jild, 2-son. Toshkent-2023, 213-219 bet.
7. Karaxanov M.K (1983). Nekapitalisticheskaya put razvitiya i problemy naroda naseleniya. – T.: "Mexnat", 140 s.
8. Ata-Mirzaev O., Gentshke V., Murtazaeva R (1998). Uzbekistan mnogonatsionalny: istoriko-demograficheskiy aspekt. –T.: Fan, 140 s.
9. <https://stat.uz>
10. <https://lex.uz>
11. <https://www.youtube.com/watch?v=Qp4bL2aZTWE>

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHDA AYOLLAR ISHTIROKI VA “YASHIL” IQTISODIY TASHABBUSLARNING INTEGRATSIYASI

Raximova Lola Shavkatovna

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti
Menejment va marketing kafedrasida assistenti
Orcid 0009-0002-4581-5185

Annotatsiya. Maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash jarayonida ayollar ishtirokini kuchaytirish va yashil iqtisodiy tashabbuslarni integratsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy asoslari o'rganiladi. Tadqiqot ishida ayollar kambag'alligini kamaytirish, ularni ekologik jihatdan barqaror bo'lgan iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik toza mahsulot yetishtirish kabi yo'nalishlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari tahlil qilinadi. Ayollar bandligini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Ayollar ishtiroki, kambag'allikni qisqartirish, yashil iqtisodiyot, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ekologik tadbirkorlik, muqobil energetika, gender tengligi, iqtisodiy integratsiya, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik.

THE PARTICIPATION OF WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND THE INTEGRATION OF “GREEN” ECONOMIC INITIATIVES IN THE CONTEXT OF AN INNOVATIVE ECONOMY

Rakhimova Lola Shavkatovna

Assistant, Department of Management and Marketing,
Fergana State Technical University

Annotation. The article examines the organizational and economic foundations of enhancing women's participation and integrating green economic initiatives in the process of ensuring sustainable economic development. The research analyzes issues related to reducing women's poverty and increasing their involvement in environmentally sustainable economic activities, particularly in areas such as renewable energy, waste-free production, and the cultivation of eco-friendly products. The research identifies opportunities to achieve socio-economic stability by increasing women's employment.

Keywords: women's participation, poverty reduction, green economy, sustainable economic development, ecological entrepreneurship, renewable

energy, gender equality, economic integration, regional development, socio-economic stability.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ И ИНТЕГРАЦИЯ “ЗЕЛЁНЫХ” ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИНИЦИАТИВ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Рахимова Лола Шавкатовна

Ассистент кафедры менеджмента и маркетинга,
Ферганский государственный технический университет

Аннотация. В статье рассматриваются организационно-экономические основы усиления участия женщин и интеграции «зелёных» экономических инициатив в процессе обеспечения устойчивого экономического развития. В исследовании анализируются вопросы, связанные с сокращением женской бедности и повышением вовлеченности женщин в экологически устойчивую экономическую деятельность, особенно в таких направлениях, как возобновляемая энергетика, безотходное производство и выращивание экологически чистой продукции. Работа выявляет возможности достижения социально-экономической стабильности за счёт увеличения занятости женщин.

Ключевые слова: Участие женщин, сокращение бедности, зелёная экономика, устойчивое экономическое развитие, экологическое предпринимательство, возобновляемая энергетика, гендерное равенство, экономическая интеграция, региональное развитие, социально-экономическая стабильность.

Kirish.

Mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'lida inson kapitalining samarali foydalanilishi, ayniqsa ayollar ishtirokini faollashtirish muhim o'rin tutadi. Aholining yarmi bo'lgan ayollarning iqtisodiy hayotdagi roli faqat ijtimoiy tenglik masalasi emas, balki keng ko'lamlı ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omilidir. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklangani va ekologik xavflarning kuchayishi yashil iqtisodiyotga o'tishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Mazkur sharoitda ayollarni yashil iqtisodiy tashabbuslarga — muqobil energiya, chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik tadbirkorlik kabi sohalarga faol jalb etish orqali ularning bandligini ta'minlash va kambag'alligini kamaytirish imkoniyati mavjud. Bu esa nafaqat gender tengligini mustahkamlash, balki hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyasining ayollar ishtiroki bilan uyg'unlashuvini o'rganishga, mavjud muammolarni aniqlashga va ularni hal qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Ayollar ishtirokida ekologik tadbirkorlik va yashil iqtisodiy tashabbuslarning rivojlanishi so'nggi yillarda ko'plab olimlar va xalqaro tashkilotlar e'tiborida bo'lmoqda. Tadqiqotchilar yashil iqtisodiyotning gender tenglikni ta'minlash va ayollar kambag'alligini kamaytirishdagi rolini har tomonlama o'rganmoqdalar. Masalan, UN Women va UNEP (BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi) ayollarni qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qishloq xo'jaligi kabi sohalarga keng jalb etish bo'yicha alohida tashabbuslar ishlab chiqib, bu yo'nalishlar orqali ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi[1]. Cecilia Ugaz Estrada (UNIDO eksperti) ayollarning yashil iqtisodiyotda faolligini rag'batlantirish orqali nafaqat ularning daromadini oshirish, balki butun jamiyatning ekologik barqarorligini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi[2].

Hindiston, Keniya va Bangladesh tajribalari shuni ko'rsatadiki, quyosh panellarini o'rnatish, bioyoqilg'i ishlab chiqarish va chiqindilarni energiyaga aylantirish kabi "ayollar + yashil texnologiyalar" dasturlari ayollarni ish bilan ta'minlashda samarali vosita bo'lmoqda[3]. Ushbu dasturlar ayollarga texnik ko'nikmalar berish, ularni mahalliy liderlarga aylantirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va boshqa usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ayollarni ekologik barqaror iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishga oid tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari ayollar bandligini oshirish, ularning iqtisodiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan amaliy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy hayotga keng jalb etish maqsadida qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ayollar daftari", "Har bir oila — tadbirkor" hamda "Yoshlar — kelajagimiz" kabi

tashabbuslar doirasida ayollarni ekologik tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks choralar ko'rilmoqda [4]. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish yo'nalishida ajratilayotgan grantlar, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ayollar tashabbuslarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularni yashil iqtisodiyot sohasida faol ishtirok etishga rag'batlantirishga xizmat qilmoqda [5].

Jahon banki, UNDP, Global Green Growth Institute (GGGI) tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va "yashil" investitsion loyihalar gender tenglikni hisobga olgan holda amalga oshirilmogda[6]. Bu tajribalar O'zbekistonda hududiy darajada "Ayollar + yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirish, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularning barqaror hayotga hissa qo'shishini ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Gender va rivojlanish bo'yicha xalqaro tarmoq (GDN) ham ekologik tadbirkorlikda ayollarni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro mexanizmlar samaradorligini tahlil qilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiy tashabbuslar ayollar uchun iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion imkoniyatlar yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda[7].

Barqaror iqtisodiy rivojlanish har qanday davlat uchun muhim strategik maqsad hisoblanadi. Bunday rivojlanish ijtimoiy tenglik, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, bu jarayonda ayollarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ayollar faqat mehnat bozori ishtirokchisi sifatida emas, balki oila darajasida iqtisodiy qarorlar qabul qiluvchi kuch sifatida ham faol rol o'ynaydi. Aynan shuning uchun ayollar ishtirokini kuchaytirish — ijtimoiy tenglikka erishish bilan birga, ularning salohiyatini ishga solish orqali kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Biroq, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar hali ham iqtisodiy imkoniyatlardan to'laqonli foydalana olmayapti — ayniqsa, moliyaviy xizmatlar, yer-mulk egaligi, texnologiyaga kirish va yuqori darajadagi ish o'rinlari borasida.

Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot – ekologik barqarorlik va iqtisodiy inklyuziyani birlashtirgan holda – ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu konsepsiya quyidagi yo'nalishlar orqali ayollar kambag'alligini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin:

- Yangi ish o'rinlari yaratish: qayta tiklanuvchi energiya (quyosh panellari o'rnatish, texnik xizmat), chiqindilarni saralash va qayta ishlash, ekologik qishloq xo'jaligi kabi sohalarda ayollar ishtirokini kengaytirish mumkin.

- Ekologik tadbirkorlik: ayollar o'z hududida ekologik mahsulot ishlab chiqarish, biologik o'g'it tayyorlash, ekologik tozalikni saqlash xizmatlarini ko'rsatish orqali barqaror daromad manbalariga ega bo'lishadi.

- Ijtimoiy innovatsiyalar: ayollar ko'pincha jamiyatdagi ekologik muammolarga bevosita duch kelishadi (masalan, suv tanqisligi, havoning

ifloslanishi). Shu sababli, ularning ushbu muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan loyihalarda ishtiroki nafaqat iqtisodiy, balki ekologik foyda keltiradi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, ayollarni yashil iqtisodiy faoliyatga jalb qilish orqali ularning iqtisodiy holatini yaxshilash va kambag'allikni kamaytirish mumkin. Masalan, Hindistonda ayollar "quyosh energiyasi muhandislari" sifatida tayyorlanib, elektrsiz hududlarga energiya yetkazib berishda faol qatnashmoqda. Bu ularga barqaror daromad, o'ziga bo'lgan ishonch va jamoada ijtimoiy mavqe taqdim etmoqda.

O'zbekiston misolida, Jahon bankining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish dasturi" doirasida 426 mingdan ortiq fuqaro, ularning yarmidan ko'pi ayollar, sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim, elektr ta'minoti va ichimlik suvi tizimlariga kirish imkoniyatini yaxshilovchi 430 ta loyihadan foyda ko'rdi. Bu loyihalar ayollar va bolalar salomatligi, ta'limi va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda[8].

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot ayollar uchun nafaqat ish o'rni, balki o'zini iqtisodiy jihatdan mustahkamlash imkonini yaratadigan inklyuziv platformadir. Shu sababli, ayollar ishtirokini kengaytirish — kambag'allikka qarshi kurash va barqaror rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismidir.

Muqobil energetika sohalari – qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol, biogaz), chiqindini qayta ishlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish ayollar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayollar kichik miqyosdagi quyosh paneli o'rnatish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash, organik mahsulotlar ishlab chiqarish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanishlari mumkin. Malaka oshirish kurslari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ularning sohadagi rolini oshirishga yordam beradi[9].

Bu sohada xalqaro tajribalarni ko'rib chiqsak, "Ayollar + Quyosh energiyasi" dasturlari Hindistonda SELCO Foundation kabi nodavlat tashkilotlar ayollarni kichik quyosh energiyasi tizimlarini o'rnatish va xizmat ko'rsatishga o'rgatadi. Mahalliy ayollar guruhlari orqali bu mahsulotlarning tarqalishi ko'paymoqda[10]. Keniyada Solar Sister dasturi ayollarga quyosh energiyasi mahsulotlarini sotishni o'rgatib, ularni mustaqil tadbirkorga aylantiradi. Bu dastur nafaqat daromad oshirish, balki hududlarda toza energiya foydalanuvchilarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Bangladeshda Grameen Shakti tashkiloti kichik quyosh tizimlarini o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatishda ayollarni faol jalb qiladi. Bu esa ularning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshiradi[11].

Mamlakatimizda davlat tomonidan "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturi" doirasida ekologik sohalarga ajratiladigan imtiyozli kreditlar va grantlar mavjud. Shuningdek, UNDP, GIZ, JICA kabi xalqaro tashkilotlar ayollarga qayta tiklanuvchi energiya va chiqindini qayta ishlash bo'yicha treninglar tashkil


etmoqda[12]. Natijada ayollar tomonidan kichik quyosh elektr stansiyalari o'rnatilishi, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish va chiqindi boshqarish sohalarida faol bizneslar shakllanmoqda[13].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ayollar iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida faol ishtirok etmoqda. Biroq bu ishtirok tarmoqlar kesimida juda notekis taqsimlangan. Bu holat ularni "yashil iqtisodiyot" va ekologik tadbirkorlik sohalariga kengroq jalb etish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ayollar iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, ta'lim (74,8%) va sog'liqni saqlash (71,1%) sohalarida ayollar ulushi eng yuqori hisoblanadi. Ushbu sohalar yashil iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ekologik savodxonlikni oshirish, barqaror hayot tarzini targ'ib qilish va sanitariya loyihalarida ayollar yetakchi rol o'ynashi mumkin. Shuningdek, san'at va ko'ngilochar xizmatlar sohasida ayollar ulushi 44,9 foizni tashkil qiladi, bu esa ekoturizm va madaniy-ekologik tashabbuslarda ularning faolligini oshirish imkonini beradi.

1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi, %[14]

Biroq, texnologik va muhandislikka yaqin tarmoqlarda ayollar ishtiroki ancha past. Masalan, elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash sohasida ayollar ulushi atigi 8 foizni, suv bilan ta'minlash va chiqindi boshqaruvi sohasida 12,4 foizni,



qurilishda esa 12,4 foizni tashkil etadi. Bu esa qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va "yashil qurilish" yo'nalishlarida ayollar ishtirokini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ayollar ulushi 19,4 foiz bo'lib, bu yo'nalishda ekologik toza mahsulotlar savdosi va "zero waste" formatidagi do'konlar orqali ayollar ekotadbirkorlikka kirib borishlari mumkin.

Moliyaviy xizmatlar (35%), ko'chmas mulk bilan bog'liq faoliyatlar (34,6%) va davlat boshqaruvi (32,7%) sohalarida ayollar o'rtacha darajada ishtirok

etmoqda. Bu esa yashil kreditlash, ekologik startaplar va yashil siyosat ishlab chiqishda ayollarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Xulosa va takliflar.

Yashil iqtisodiyot va ekologik tadbirkorlik ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ayollar ishtiroki tarmoqlar kesimida notekis taqsimlangan. Ayollar ijtimoiy va gumanitar sohalarda yuqori ishtirok etishsa-da, texnologik va ishlab chiqarish sohaslarida ularning ulushi past. Shunga qaramay, yashil iqtisodiyotning qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va barqaror qurilish kabi tarmoqlari ayollarni keng jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekistonning ekologik tadbirkorlik sohasida ayollarning ishtirokini kuchaytirish uchun maxsus grantlar, imtiyozli kreditlar, STEM ta'limi va hududiy ko'nikma oshirish dasturlari zarur. Shu bilan birga, ayollarni ekologik savodxonlikni oshirishga va yashil iqtisodiyotning turli sohaslariga jalb qilishga oid strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

Ayollarning yashil iqtisodiyot va ekologik tadbirkorlik sohaslarida faol ishtiroki nafaqat ularning iqtisodiy holatini yaxshilashga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Shuning uchun ayollarni bu sohalarga jalb qilish bo'yicha kompleks dasturlarni amalga oshirish va samarali siyosatni ishlab chiqish O'zbekistonning ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. UN Women and UNEP. *Gender and Environment: A Guide to the Green Economy*. New York: United Nations, 2020, pp. 24–26.
2. Ugaz Estrada, C. (2021). *Women's Empowerment in Green Industry*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization (UNIDO), pp. 7–9.
3. Practical Action. *Energy Access for Women in Developing Countries: Best Practices*. Practical Action Publishing, Rugby, UK, 2022, pp. 15–18.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4235-son, 2019-yil 7-mart. "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
5. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (2023). *Ayollar tadbirkorligi va moliyaviy inklyuziya tahlili*. Toshkent, 2023.
6. Global Green Growth Institute. *Green Growth and Gender Mainstreaming Toolkit*, 2021. <https://gggi.org/wp-content/uploads/2021/02>
7. Global Development Network (GDN). *Gender-Responsive Green Economy Policies: What Works?* New Delhi: GDN, 2022, pp. 10–12.

8. World Bank. (2024). *Women and Children Benefit When Uzbek Villages Are Empowered to Invest*. Washington, D.C.: World Bank. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/07/18/women-children>
9. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2019). *Renewable Energy and Jobs – Women’s Participation in the Energy Transition*.
10. SELCO Foundation. (2021). *Empowering Women Through Solar Energy in India*. Bangalore: SELCO Foundation. Retrieved from <https://selcofoundation.org>
11. Solar Sister, “Clean Energy Entrepreneurship for Women in Kenya”, 2022
12. GIZ, UNDP Reports on Women and Renewable Energy in Uzbekistan, 2022
13. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo‘jaligi vazirligi, “Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturi”, 2023.
14. <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/mehnat>

AHOLINING DEMOGRAFIK TENDENSIYALARI O'SISHI VA MEHNAT BOZORIDA MEHNAT RESURLARIGA BO'LGAN TALABNI MUVOFIQLASHTIRISH MUAMMOLARI

Qilichov Ulug'bek Rustam o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
"Demografiya va mehnat bozori" sektori stajyor-tadqiqotchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholining demografik tendensiyalari va mehnat bozorida mehnat resurslariga bo'lgan talabni muvofiqlashtirishdagi asosiy muammolar tahlil qilinishiga qaratilgan. Birinchidan, aholi o'sishi, yosh tuzilishi va ishlaydigan yoshdagi aholining dinamikasi kabi demografik ko'rsatkichlar ko'rib chiqildi. Ikkinchidan, mehnat bozorida mehnat resurslari talab va taklifi, vakansiyalar, kadrlar tayyorligi va migratsiya kabi omillar orasidagi munosabatlar o'rganildi. Uchinchidan, ushbu natijalar asosida mehnat bozori va demografik rivojlanishni muvofiqlashtirish uchun strategiyaviy tavsiyalar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: aholi o'sishi, demografik jarayonlar, demografik tendensiyalar, yosh, tuzilish, hudud, migratsiya, iqtisodiy, ish o'rinlari, mehnat bozori, mehnat resursi, talab va taklif.

ПРОБЛЕМЫ РОСТА ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ТЕНДЕНЦИЙ НАСЕЛЕНИЯ И КООРДИНАЦИИ СПРОСА НА ТРУДОВЫЕ РЕСУРСЫ НА РЫНКЕ ТРУДА

Киличову Улугбеку Рустам угли

*Стажер-исследователь сектора
"Демография и рынок труда" научно-исследовательского центра
"Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при
Ташкентском государственном экономическом университете
Студент магистратуры ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. Данная статья посвящена анализу демографических тенденций населения в Республике Узбекистан и основных проблем координации спроса на трудовые ресурсы на рынке труда. Во-первых, были рассмотрены такие демографические показатели, как рост населения, возрастная структура и динамика населения трудоспособного возраста.

Во-вторых, была изучена взаимосвязь между такими факторами, как спрос и предложение трудовых ресурсов на рынке труда, вакансии, готовность кадров и миграция. В-третьих, на основе этих результатов были проанализированы стратегические рекомендации по координации рынка труда и демографического развития.

Ключевые слова: рост населения, демографические процессы, демографические тенденции, возраст, структура, регион, миграция, экономические, рабочие места, рынок труда, трудовые ресурсы, спрос и предложение.

DEMOGRAPHIC TRENDS OF THE POPULATION AND PROBLEMS OF COORDINATING THE DEMAND FOR LABOR RESOURCES IN THE LABOR MARKET

Kilichov Ulugbek Rustam ugli

Intern-researcher of the "Demography and labor market" Sector of the research center "Scientific foundations and problems of economic development of Uzbekistan" at Tashkent state university of economics Master's student of Tashkent state university of economics

Abstract. This article is aimed at analyzing the demographic trends of the population in the Republic of Uzbekistan and the main problems in coordinating the demand for labor resources in the labor market. First, such demographic indicators as population growth, age structure, and dynamics of the working-age population were considered. Secondly, the relationship between such factors as supply and demand for labor resources in the labor market, vacancies, personnel readiness, and migration was studied. Thirdly, based on these results, strategic recommendations for coordinating the labor market and demographic development were analyzed.

Keywords: population growth, demographic processes, demographic trends, age, structure, territory, migration, economic, jobs, labor market, labor resources, supply and demand.

Kirish.

Demografik rivojlanish — har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda mehnat bozori bilan uzviy bogʻliq muhim jarayonidir. Xususan, Oʻzbekistonda aholi soni va yosh tuzilishidagi oʻzgarishlar mehnat resurslariga boʻlgan talab va taklifning shakllanishida hal qiluvchi rol oʻynamoqda. Misol uchun, mamlakat aholisi 2025-yil oktabr holatiga 38 million 69 mingga yetgan [1].

Shu bilan birga, 2025-yil 1-iyul holatiga mamlakatda 22,5 million kishi mehnat bozorida bevosita ishtirok etmayotgan — maktab oʻquvchisi, pensioner

yoki imkoniyati cheklangan shaxslar qatoriga kiradi — bu esa taxminan 59,4 % miqdorini tashkil etadi [2].

Demografik jarayonlar xolos ishchi-yoshdagi aholining ulushini oshirish imkonini beradi va bu esa mehnat bozorida yangi talab va bosimlarni yuzaga keltiradi. Biroq, mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun yangi ish o‘rinlari, kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimi va ichki migratsiya kabi omillar bilan muvofiqlashtirish zarur. Masalan, 2024-yilda rasmiy ishga joylashgan kadrlar soni 14,260 ming kishiga yetgan [3].

Demografik tarkibda yoshlar ulushining oshishi va tashqi/ichki migratsiya jarayonlari mehnat bozoriga qo‘shimcha bosim o‘tkaza boshlagan [4]. Shunday qilib, demografik faktorlar — ishchi yoshdagi aholi soni, yosh tuzilishi, migratsiya va mehnat bozori sharoiti o‘rtasida mustaqil emas, balki o‘zaro bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik esa mehnat bozorida talabni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi — demografik tendensiyalar va mehnat bozorida mehnat resurslariga bo‘lgan talabni muvofiqlashtirishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilish.

Tadqiqot manzili — O‘zbekiston Respublikasi; vaqt chegarasi — 2010-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr.

Ushbu mavzu bo‘yicha olib boriladigan tahlil mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mehnat resurslarining samarali foydalanilishi iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Avvalo, demografik o‘zgarishlar va mehnat bozori munosabatlari bo‘yicha umumjahon miqyosidagi nazariy va empirik tadqiqotlar ko‘zdan kechiriladi. Masalan, jami aholining o‘shishi, ishchi yoshdagi aholining ulushi va mehnat resurslarining shakllanishi mavzulariga bag‘ishlangan “The Impact of Population Growth and the Labor Market on Economic Development” nomli maqolada mualliflar J. Turayevich va Sh. Botirjon o‘g‘li 2013-2023 yillarga oid O‘zbekistonga doir ma’lumotlardan foydalangan holda aholining o‘shishi, mehnat resurslari kengayishi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni tahlil qilishgan [3].

Ular topilgan natijalarda aholining o‘shishi ishchi kuchi taklifini oshirishi mumkinligini, lekin bu taklifni ish o‘rinlari, malaka va texnologiya kabi omillar bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, mehnat bozori muvaffaqiyatini kafolatlamasligini ko‘rsatgan. Bu jihat tadqiqotimiz uchun muhim, chunki O‘zbekistonda demografik yurishlar va mehnat bozori o‘zaro aloqasi aynan shunday murakkab tizimga ega.

Bundan tashqari, “Productivity development in the construction industry and human capital: a literature review” nomli tadqiqotda M. Bahr va L. Laszig instrukturaviy o‘zgarishlar hamda mehnat bozorida malaka (human capital) va demografik jarayonlar o‘rtasidagi munosabatni tekshirishgan [4]. Ular korxonalar darajasida demografik yuklanish va malaka yetishmovchiligi qurilish sohasida mahsuldorlikga salbiy ta’sir etishini aniqlagan. Bu natija, O‘zbekistonda ham malaka va ta’lim tizimi bilan bog‘liq muammolarni ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda demografik o‘zgarishlar va mehnat bozori bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, “Responsibility of demographic changes in Uzbekistan for labor market management” nomli maqolada R. Najimadinov va D. Dushambaevich qishloq mehnat bozorida demografik o‘zgarishlar (tabiiy o‘shish, migratsiya) ta’sirini, hamda ishchi kuchi taklifi va talabini boshqarish jarayonida uchrayotgan muammolarini tahlil qilishgan [2]. Ushbu tadqiqot qishloq hududlari nuqtai nazaridan mehnat bozoridagi demografik bosimni ko‘rsatadi — misol uchun, yuqori tabiiy o‘shish darajasi qishloq mehnat resurslari taklifini keskin oshiradi, lekin ishlab chiqarish va ish bilan ta’minlash jihatidan ortiqcha bosimga uchraydi.

Xuddi shunday, “Demographic features of labour market development in Uzbekistan” nomli maqolada demografik tendensiyalar, aholi yosh strukturasi va mehnat bozorining shakllanishi konseptual jihatdan tahlil qilingan [1]. Mualliflar O‘zbekistonda ishchi yoshdagi aholi ulushi yuqoriligi, lekin mehnat bozorida malaka va mos ish o‘rinlari etishmasligi muammolarini belgilagan.

Tadqiqotlar natijalarining o‘zaro solishtiruv va muhim jihatlari

Ushbu adabiyotlarni tahlil qilganda bir nechta asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchi, demografik o‘shish — ishchi yoshdagi aholining ko‘payishi — potentsial «mehnat taklifi»ning kengayishiga imkon beradi. Mahalliy tadqiqotlarda ham bu fakt qayd etilgan [1].

Ikkinchi, lekin taklifning kengayishi avtomatik ishchi kuchining samarali jalb qilinishini anglatmaydi. Ya’ni, mehnat bozori talabiga mos ish o‘rinlari, kadr tayyorlash, malaka oshirish, mintaqaviy nuqsonlar, migratsiya kabi omillar muhim. Xalqaro tadqiqotlar bu jihatni malaka va texnologiya bilan bog‘liq deb ko‘rsatgan [4].

Uchinchi jihat — demografik yuk (dependency ratio), yosh va pensionerlar ulushi ham mehnat bozorini cheklashi mumkin. Mahalliy tadqiqotlarda bu aspekt qishloq hududlariga xos mehnat taklifi bosimi shaklida ko‘rib chiqilgan [2].

To‘rtinchidan, mintaqaviy farqlar, shaharlashuv va migratsiya — mehnat resursining joylashuvi va sifatini belgilovchi muhim omillar. Bu tadqiqotlar

ichida ham — O‘zbekistonda ichki migratsiya va hududiy farqlarni dolzarbligi bir necha marta qayd etilgan [2].

Nihoyat, demografik jarayonlar bilan birga mehnat bozorining institut-siyosiy infratuzilmasi ham rol o‘ynaydi — mehnat qonunchiligi, ta’lim-kasb tizimi, ish bilan ta’minlash siyosati. Bu jihat xalqaro adabiyotlarda keng ko‘rib chiqilgan [6].

Bo‘lmagan jihatlar va tadqiqotlar bo‘shligi

Shuningdek, adabiyotlarda hali quyidagi jihatlar etarlicha o‘rganilmagan:

Hududlar bo‘yicha (viloyatlar, shaharlik-qishloqlik) demografik tendensiyalar va mehnat bozori muvofiqligi bo‘yicha detallashgan tadqiqotlar kam. Masalan, qaysi viloyatda yoshlar ulushi ko‘p, lekin ish o‘rinlari yetishmaydi — bu kabi taqqoslashlar bu sohada kam.

Mehnat bozorida malaka va tayyorgarlik mezonlari bilan yosh tuzilishi o‘rtasidagi konkret o‘zaro bog‘liqliklar — ayniqsa digital iqtisodiyot, xizmatlar sektori kontekstida — kam o‘rganilgan.

Demografik o‘shish va mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi dinamik jarayonlar (toshish, qaytish, ko‘chib yurish) ham ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinmagan.

Adabiyotlarda ko‘p hollarda taklif (mehnat resurslari) jihati keng ko‘rilgan — talab (vakansiyalar, ish o‘rinlari) va taklif o‘rtasidagi muvofiqlik masalasi esa yetarlicha chuqurlashmagan.

Shu bilan, demografik jarayonlar va mehnat bozorining munosabati bo‘yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlar sermazmun va xilma-xildir. Ular asosiy jihatdan demografik o‘shish, ishchi yoshli aholining ulushi, migratsiya, mehnat taklifi va malaka bilan bog‘liq muammolarni ko‘rsatadi. Ammo O‘zbekistonda, ayniqsa hududiy farqlar, xizmatlar sektori va yosh tayyorgarligi jihatlarida ilmiy bo‘shliq mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning demografik jarayonlari va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun bir nechta oddiy va amaliy metodlardan foydalanildi. Avvalo, Davlat statistika qo‘mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, ILO) hamda ochiq elektron ma’lumotlar bazalaridagi statistik ko‘rsatkichlar yig‘ilib tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: tarixiy-tahliliy yondashuv, empirik (amaliy) tahlil, qiyosiy taqqoslash, grafik va jadval asosida tahlil.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston aholisi 2010-2025 yillar oralig‘ida sezilarli darajada o‘sdii. 2010 yilda mamlakat aholisi taxminan 30,5 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib bu ko‘rsatkich 38,1 million kishiga yetdi. Shu bilan birga, ishchi yoshdagi

aholi (15–64 yosh) ulushi 56 foizni tashkil etadi, bu esa demografik bonus potentsialini ko'rsatadi [2]. Demografik bonus — bu ishchi yoshdagi aholi ulushi yuqori bo'lganda iqtisodiy o'sish imkoniyati ortishi, ya'ni iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin bo'lgan holatdir. Ammo buning samarali bo'lishi ish o'rinlari mavjudligi, ishchi kuchining malakasi, hududiy taqsimot va boshqa omillarga bog'liq.

1-jadval

O'zbekistondagi mehnat bozori ko'rsatkichlari

Yil	Aholi soni (mln)	Ishchi yoshdagi aholi (%)	Ishchi yoshdagi aholi (mln)
2010	30,5	54	16,5
2015	32,8	55	18,0
2020	35,4	56	19,8
2025	38,1	56	21,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Bandlik darajasi, ishsizlik va vakant ish o'rinlari statistikasi (2015–2024).

Yosh tuzilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, ishchi yoshdagi aholining katta ulushi mavjud bo'lsa-da, yoshlar (0–14 yosh) qismi ham sezilarli — taxminan 32 foiz [3]. Bu kelajakda mehnat bozoriga kiradigan yosh ishchi kuchining ko'pligini bildiradi. Shu bilan birga, pensionerlar ulushi nisbatan past bo'lsa-da (~11%) qarish jarayoni asta-sekin boshlanmoqda. Demografik yuk koeffitsienti, ya'ni ishchi yoshdagi aholiga nisbatan bolalar va pensionerlar soni, taxminan 720 nafarni tashkil qiladi, bu esa mehnat bozorida qo'shimcha yukni bildiradi [3].

Shaharlashuv ko'rsatkichlari ham mehnat resursining joylashuvi va ish o'rinlari bilan bog'liq muammolarni ochib beradi. 2025 yilga kelib shahar aholisi taxminan 51 foizni tashkil qilmoqda. Bu ishchi kuchining markazlashuvini ko'rsatadi, shaharlar esa yuqori malakali ishchi kuchi va xizmat sektori markazlari bo'lib qolmoqda. Hududlar bo'yicha esa mehnat resurslari Samarqand va Farg'ona viloyatlarida eng ko'p, ammo mos ish o'rinlari yetishmasligi hududiy nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi [5]. Shu sababli, shahar va qishloq hududlaridagi ish o'rinlari va malakali ishchi kuchning taqsimlanishi mehnat bozorida muhim omil hisoblanadi.

Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish natijasida quyidagilar aniqlanadi: 2024 yilda ishsizlik darajasi taxminan 10 foizni tashkil qilgan. Yoshlar va qishloq aholisi orasida ishsizlik darajasi yuqoriroq bo'lib, bu demografik tarkib va hududiy taqsimot bilan bog'liq. Shu bilan birga, so'nggi chorakda e'lon qilingan vakant ish o'rinlari soni atigi 41 000 ni tashkil qilgan [7]. Bu ishchi yoshdagi aholining soni bilan solishtirganda yetarli emas va ishchi kuchi talabini qisman qondiradi.

2- jadval

O'zbekistondagi demografik ko'rsatkichlar

Hudud	Shahar (%)	Qishloq (%)
O'zbekiston	51	49
Samarqand viloyati	53	47
Farg'ona viloyati	50	50

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Aholi soni va demografik ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar (2015–2024).

Malaka va tayyorgarlik jihati tahlil qilinganda, ishchi kuchi taklifi mavjud bo'lsa-da, ish o'rinlarini to'ldirishda malaka yetishmovchiligi asosiy to'siq hisoblanadi. Yoshlar o'qitish va kasbiy tayyorgarlik dasturlari mehnat bozoriga moslashish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, demografik bonusni samarali resursga aylantirish uchun kadrlar tayyorlash tizimi va malaka oshirish dasturlari muhim rol o'ynaydi.

Demografik jarayonlar va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tahlil qilganda quyidagilar aniqlanadi. Ishchi yoshdagi aholi sonining ko'pligi mehnat taklifini oshiradi, ammo bu avtomatik ish o'rinlari bilan uyg'unlashmaydi. 2025 yilga kelib ishchi yoshdagi aholi soni taxminan 21,2 millionni tashkil etgan bo'lsa-da, mavjud ish o'rinlari yetarli emas [5]. Bu demografik potensialni to'liq ishchi kuchiga aylantirish uchun siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlar zarurligini bildiradi.

Yosh tuzilishi va demografik yuk (dependency ratio) mehnat bozorida faol ishchi kuchini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Qarish jarayoni va pensionerlar ulushi ortishi bilan mehnat bozorida samaradorlik kamayadi, qo'shimcha yordam tizimlari yuklanadi [6]. Shu sababli, mehnat bozori va demografik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p omilli bo'ladi.

Migratsiya va shaharlashuv ham ishchi kuchining joylashuvi va segmentatsiyasini belgilaydi. Shahar markazlarida vakansiyalar soni yuqori bo'lsa-da, qishloq hududlarda ish o'rinlari yetarli emas. Shu bilan birga, malakali ishchi kuchning shahar markazlariga yoki chet elga migratsiyasi hududiy resurslarning kamayishiga olib keladi [5].

Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda asosiy xulosalar shundan iborat:

1. Demografik o'sish O'zbekistonda mehnat resursining kengayishiga imkon yaratadi, ammo ish o'rinlari, malaka va hududiy taqsimot bilan uyg'unlashishi zarur.

2. Mehnat bozori va demografik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p omilli. Naqd ish o'rinlari, malaka yetishmovchiligi, migratsiya va hududiy farqlar muammolarni kuchaytiradi.

3. Siyosat va strategiyalar, jumladan malaka oshirish, mehnat migratsiyasini boshqarish va hududiy ish o'rinlarini yaratish demografik bonusni samarali resursga aylantiradi.

4. Mehnat bozori va demografik jarayonlar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash uchun hududiy rejalashtirish, kasb tayyorgarligi dasturlari va migratsiya siyosatini optimallashtirish zarur.

Shunday qilib, tahlil natijalari demografik o'sish va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning demografik tendensiyalari va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy natijalar shundan iboratki, mamlakat aholisi 2010–2025 yillar oralig'ida sezilarli darajada o'sdi va ishchi yoshdagi aholining ulushi yuqori bo'ldi. Bu holat iqtisodiy o'sish uchun muhim resurs bo'lishi mumkin bo'lsa-da, mavjud ish o'rinlari, malaka yetishmovchiligi va hududiy nomuvofiqliklar bu potensialning to'liq ishchi kuchiga aylanishiga to'siq bo'lmoqda.

Yosh tuzilishi va demografik yukni tahlil qilganda, yoshlar va pensionerlar ulushi mehnat bozorida qo'shimcha yuk hosil qilishini ko'rsatadi. Ishchi yoshdagi aholining ko'pligi demografik bonusni yuzaga chiqaradi, ammo agar ish o'rinlari va malaka bilan uyg'unlashmasa, bu imkoniyat to'liq ishlatilmaydi. Shu bilan birga, shaharlashuv jarayoni ishchi kuchining markazlashuviga olib keladi; shahar markazlarida ish o'rinlari ko'p, qishloq hududlarda esa yetarli ish o'rinlari yo'q. Bu esa hududiy nomuvofiqliklarni kuchaytiradi va migratsiya oqimlarini oshiradi.

Malaka va tayyorgarlik masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozorida mos ish o'rinlarini to'ldirishda malaka yetishmovchiligi asosiy to'siq hisoblanadi. Shu sababli yoshlar va ishchi yoshdagi aholi uchun zamonaviy kasb tayyorgarligi va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish lozim. Bu ishchi kuchining bozor talabiga moslashishini ta'minlaydi va demografik bonusdan maksimal foyda olish imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, bir qator takliflar ishlab chiqilgan. Birinchidan, qishloq hududlarda va kam rivojlangan viloyatlarda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va investitsiya loyihalarini jalb qilish orqali mehnat resursini samarali taqsimlash zarur. Ikkinchidan, yoshlar va ishchi yoshdagi aholiga zamonaviy kasb tayyorgarligi va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, shu jumladan, texnik va professional ta'lim tizimini takomillashtirish lozim. Uchinchi taklif sifatida, ichki migratsiya va shahar markazlariga ishchi kuchining markazlashuvini muvofiqlashtirish, shuningdek,

chet elga mehnat migratsiyasini tartibga solish orqali mahalliy mehnat bozorining barqarorligini saqlash muhimdir.

Bundan tashqari, ish o'rinlari va vakantlar sonini doimiy ravishda monitoring qilish, hududiy va yosh bo'yicha tahlilni amalga oshirish ham tavsiya etiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida siyosat va strategiyalar ishlab chiqish, mehnat bozorini demografik jarayonlar bilan uyg'unlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Oxir-oqibat, aholining yosh tuzilishi, qarish jarayoni va ishchi yoshdagi aholining o'sishini hisobga olgan holda uzoq muddatli mehnat siyosatini ishlab chiqish zarur, bu esa demografik bonusdan maksimal foyda olish va mehnat bozori barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning demografik jarayonlari va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p omilli bo'lib, strategik chora-tadbirlarni talab qiladi. Ishchi kuchini samarali ishlatish, hududiy nomuvofiqliklarni kamaytirish va malaka oshirish tizimini kuchaytirish orqali demografik bonusdan maksimal foyda olish mumkin. Bu bo'limda ishlab chiqilgan takliflar amaliy choralar sifatida mehnat bozorining samaradorligini oshirishga va demografik imkoniyatlarni to'liq ishlatishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston aholisi soni va demografik ko'rsatkichlar 2010–2025-yillar uchun hisobot. Toshkent, 2025.*
2. *World Bank. Uzbekistan's Total Population and Labor Market Indicators, 2010–2025. Washington, 2024.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Mehnat bozorining holati va bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobot. Toshkent, 2024.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Urbanizatsiya va hududiy iqtisodiy rivojlanish tahlili. Toshkent, 2024.*
5. *State Committee of Statistics of the Republic of Uzbekistan. Youth Demographic Trends and Employment Challenges. Tashkent, 2025.*
6. *Ministry of Employment and Labor Relations. Vacancy and Employment Report of Uzbekistan 2024. Tashkent, 2024.*
7. *Egov.uz — Ishsizlik darajasi va mehnat faolligi bo'yicha onlayn ma'lumotlar bazasi. 2024.*
8. *United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report: Demographic Change and Employment in Central Asia. New York, 2023.*
9. *OECD. Population Dynamics and Labor Market in Transition Economies. Paris, 2022.*
10. *Jahon banki. Employment Challenges in Emerging Markets: Uzbekistan Country Overview. Washington, 2023.*

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Aholining bandligini ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5410-sonli qaror, 2024-yil 10-yanvar.
12. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahriri). Toshkent, Adolat nashriyoti, 2023.
13. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). *Labor Market Outlook in Uzbekistan and Central Asia*. Geneva, 2023.
14. Asian Development Bank (ADB). *Youth Employment and Skills Development in Uzbekistan*. Manila, 2024.
15. Karimov, B. & To'xtayev, N. Demografik jarayonlar va mehnat bozorining iqtisodiy muvozanati. "Iqtisodiyot va jamiyat" jurnali, №2, 2023.

MEHNAT MIGRATSIYASINING RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TASIRI

Saidova Sevara Yormamat qizi

“TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi stajyor- tadqiqotchisi,
TDIU 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar mehnat bozorida muhojir ishchilarning ortib borayotganining tasiri va bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining bardavomligida mehnat migratsiyasining o'рни tahlil qilingan. Yani Yevropa ittifoqiga azo davlatlar misolida demografik muammolar tufayli ko'pgina iqtisodiyot tarmoqlarining to'la-to'kis faoliyat olib borishida muhojir ishchilarga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga o'sib borayotgani yoritib berilgan. Shuning bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarning muhojir ishchilarni jalb qilish maqsadida ularning bu mamlakatlarga kirib borishini yengillashtirish siyosati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xalqaro migratsiya, rivojlangan mamlakatlar, iqtisodiy o'sish, demografik qarish, mehnat bozori, iqtisodiyot tarmoqlari, Yevropa Ittifoqi, global raqobatbardoshlik, ruxsatnomalar, uzoq muddatli parvarishlash, iqtisodiy tengsizliklar, pandemiya, yashil iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, yuqori malakali, past malakali.

ВЛИЯНИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РАЗВИТЫХ СТРАН

Саидова Севара Ёрмамат кызы,

стажер-исследователь сектора

«Демография и рынок труда»

научно-исследовательского центра

«Научные основы и проблемы экономического
развития Узбекистана» при ТГЭУ,

магистрант 1 курса ТГЭУ

Аннотация. В статье анализируется влияние растущего числа трудовых мигрантов на рынок труда развитых стран и роль трудовой миграции в обеспечении устойчивого экономического развития этих стран. Другими словами, пример государств-членов Европейского Союза показывает, что из-за демографических проблем потребность в трудовых мигрантах для полноценного функционирования многих секторов

экономике с каждым годом возрастает. Кроме того, была проанализирована политика развитых стран по уменьшению барьеров въезду трудовых мигрантов в эти страны с целью их привлечения.

Ключевые слова: международная миграция, развитые страны, экономический рост, демографическое старение, рынок труда, секторы экономики, Европейский союз, глобальная конкурентоспособность, разрешения, долгосрочный уход, экономическое неравенство, пандемия, зеленая экономика, цифровая экономика, высококвалифицированный, низкоквалифицированный.

THE IMPACT OF LABOR MIGRATION ON THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF DEVELOPED COUNTRIES

Saidova Sevara Yormamat qizi

1st year master's degree student at Tashkent State University of Economics, intern researcher of "Demography and labor market" sector of Scientific research center "Scientific Basis and Problems of Economic Development of Uzbekistan" at Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the impact of the increasing number of migrant workers on the labor markets of developed countries and the role of labor migration in the sustainable economic development of these countries. In other words, the example of the European Union member states illustrates that due to demographic problems, the need for migrant workers is increasing year by year for the full operation of many economic sectors. In addition, the policies of developed countries to facilitate the entry of migrant workers into these countries in order to attract them were analyzed.*

Keywords: *international migration, developed countries, economic growth, demographic aging, labor market, economic sectors, European Union, global competitiveness, permits, long-term care, economic inequalities, pandemic, green economy, digital economy, high skilled, low skilled.*

Kirish.

So'ngi yillar statistik malumotlariga ko'ra dunyo bo'ylab 167.7 million ishga layoqatli xalqaro muhojirlar mehnat bozorida ishtirok etgan. Ushbu xalqaro mehnat muhojirlari 2022-yilda dunyoning mehnatga layoqatli yoshdagi xalqaro migrantlar aholisining taxminan 66 foizini tashkil qilgan. Global miqyosda mehnat muhojirlari ishchi kuchining 4,7 foizini tashkil qiladi, ammo Yevropada

bu foiz yanada kattaroq va ortib bormoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) 16-dekabr kuni e'lon qilingan so'nggi hisobotida "Xalqaro muhojirlar jahon mehnat bozorida muhim kuchdir", deyiladi [4]. Ayniqsa Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning iqtisodiyotining ko'pgina tarmoqlarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj, migrantlarning mehnat bozoridagi o'rni muhim ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Bunga sabab esa Yevropa mamlakatlari bugungi kunda demografik qarish va miyaning aql faoliyati ketishi kabi qator muommalarga uchrangani bo'lib, bu holat yaqin va uzoq kelajakda ham davom etishi tahmin qilinmoqda. Tug'ulish darajasi pastligi, aholining qaribborishi va mehnatga layoqatli aholining kamayishi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga ham sezilarli darajada o'z tasirini ko'rsatadi, yani ishchi kuchi yetishmasligi muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababdan mamlakatlar o'z iqtisodiyotini raqobatbardoshligini yo'qotmaslik, ishlab chiqarish hajmining kamaymasligi va iqtisodiyot tarmoqlarining faol ishlashi uchun chet ellik yuqori malakali ishchilarni jalb qilishga harakat qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Dunyo bo'ylab olib borilayotgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki o'sib borayotgan halqaro migratsiya rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy ko'rsatgichlariga ijobiy va statistic jihatdan sezilarli tasir ko'rsatadi. Immigratsiyaning qay darajada ta'siri kuchli bo'lishiga bir qancha faktorlar sabab bo'ladi, masalan muhojirlar kirib borayotgan mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, immigrantlarning yoshi va malakasi. Bir qancha tadqiqotlarda immigratsiyaning iqtisodiy o'sish, mahsuldorlik, bandlik va innovatsiyalar kabi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatgichlarga qaysi darajada tasir qilishi o'rganilgan, masalan Boubtein (2013), Kochjan va boshqalar (2021). Milliy kontekstlarni qamrab olgan bazi tadqiqotlarning habar berishicha immigratsiyaning foydali tasiri ko'proqdir, boshqalarining izlanishlari natijalari esa salbiy oqibatlarini aniqlagan [8]. Masalan immigratsiya ishchi kuchini ko'paytirish va aholining qarishi bilan bog'liq moliyaviy bosimini yumshatish orqali iqtisodiy o'sishga foyda keltirishi mumkin. Tolmacheva(2020) va Petersonning (2017) izlanishlari shuni ko'rsatadiki bunday tasir ayniqsa demografik nomutanosibliklari bor rivojlangan mamlakatlarda dolzarb hisoblanib immigratsiya yechim sifatida ko'rilmogda. Immigratsiya vaqtinchalik iqtisodiy muvozanatga sabab bolishi mumkin deydi Muysken va Ziyesemer (2013) tadqiqotlarida, yani aholining qarishining bazi salbiy oqibatlarini bandlik, ish haqi va aholi jon boshiga YAIMni oshirish orqali erishish mumkin. Di Berardino va boshqalarning (2021) takidlashicha immigratsiyaning nafaqat hajmi, balki hilma hilligi ham mintaqaviy iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liqdir [8].

Past malakali ishchilarga qaraganda yuqori malakali ishchilarga bo'lgan extiyoj rivojlangan mamlakatlarda ko'proq kuzatiladi. Tiplalayalai (2020) yilda

bergan malumotlariga ko'ra malaka darajasi immigratsiyaning iqtisodiy o'sishga tasirini aniqlashda muhim hisoblanadi, aniqroq qilib aytganda malakali va malakasiz immigrantlar iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shgan bo'lsada birinchisining tasiri sezilarliroq [8]. Shu nuqtai nazarni qo'llab quvvatlagan holda Kim va boshqalarning aniqlashicha past malakali ishchilar sezilarli darajada kamroq iqtisodiy o'sishga tasir qiladi. Bunga sabab ish unumdorligi bo'lib yuqori malakali ishchilar nisbatan ko'proq foyda keltiradi deb ishonoladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda kompleks va dinamik tahlillash usullaridan keng ravishda foydalanildi. Shu bilan birgalikda dedusiyon va induksiyon tahlillash usullaridan, hamda statistic malumotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yevropa davlatlarining global raqobatbardoshligini taminlashda va kelajakdagi demografik muammolarni hal qilishda mehnat migratsiyasining o'rnini muhim bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning ham asosiy omili hisoblanadi. Shu o'rinda mehnat migratsiyasi Yevropa davlatlarining qonunchiligida ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Demografik o'zgarishlar tufayli Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti ko'proq Yevropa Ittifoqidan tashqarida yollangan ishchilarga tayanadi. Mehnat migratsiyasi tartib-qoidalarini yanada uyg'unlashtirish uchun 2011-yilda qabul qilingan Yagona ruxsatnomalar direktivasi (2011/98/EI), yani Yevropa Ittifoqida ishlash va yashash huquqini beruvchi yagona ruxsatnomani qo'lga kiritish uchun soddalashtirilgan ariza berish tartibini belgiladi [3]. Yevropa ittifoqiga azo davlatlarga mehnatga layoqatli muhojirlarning osonroq mehnat bozoriga kirib borishini ta'minlashda bir qancha yengillashtirilgan yo'llanmalarning ishlab chiqilishi bu davlatlarning ishchilarga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatib beradi. Bunday yengilliklarga Yevropa ittifoqi Ko'k kartasi, Yagona ruhsatnoma (Single Permit), Mavsumiy ishchilar uchun ruhsatnomalar kiradi. 2023 yilda Yevropa Ittifoqi bo'yicha 3,9 million dan ortiq non-EU jismoniy shaxslariga yagona ruxsatnomalari berilgan [1]. Bunday qonuniy yo'l bilan chet elga uzoq muddatga ishlash va yashash uchun ketish eng keng tarqalgan yo'l deb hisoblanadi. 2023 yilda Blue Card (yuqori malakali ishchilar uchun maxsus ruxsatnoma) bo'yicha $\approx 89,000$ dona yuridik ishchi ruxsatnomalari berilgan [2]. 2023 yilda non-EU xodimlariga 191 840 mavsumiy ish ruhsatnomalari berilgan.

Yuqorida keltirilgan yengilliklarga qaramay noqonuniy ravishda Yevropa davlatlariga kirib borayotgan ishchilar ham yo'q emas. Ammo bunday ko'chishlar havf hatarga to'la bo'lib jinoiy javobgarlikga tortilishning sababi ham bo'lishi mumkin. Qonuniy ravishda Yevropaga ko'chib o'tayotgan muhojirlarning aksariyati bu davlatlarda uzoq muddat yashab, mehnat bozorida o'z o'rnini

topibgina qolmasdan oilasiniyam ko'chirib kelishga muaffaq bo'lgan. Ammo noqonuniy ravishda kirib borganlar tez orada o'z mamlakatlariga majburiy qaytariladi (deport qilinadi). Noqonuniy migratsiya rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga sezilarli darajada kam foyda keltiradi. Bunga sabab qilib shuni ko'rsatishimiz mumkinki noqonuniy yo'llar bilan kirib kelgan ishchilar qonuniy ravishda ishga joylasha olmaydilar va soliq to'lamaydilar, ularning ishlab chiqarishga va hizmatga qo'shgan hissasi Yalpi ichki mahsulot hisobotidaham ko'rsatilmaydi. Yevropa davlatlariga ko'chib borayotgan ishchilar uchun Yevropa Ittifoqining qonuniy migratsiya tizimi malum bir toifaga tegishli bo'lgan muhojirlar uchun yani yuqori malakali ishchilar uchun, korporativ ichidagi ishchilar va mavsumiy ishchilar uchun ish yo'llarini taklif qiladi. Yevropa davlatlarining iqtisodiyoti faolligi ko'proq bu davlatlardan bo'lmagan ishchilarga bog'liq bo'lib bormoqda, bunga sabab esa demografik o'zgarishlardir. Yani Yevropa ittifoqi qarib bormoqda, va tug'ilish kam va shuning bilan bir qatorda ishga layoqatli aholi soni ham kamaymoqda. Fuqarolarning ko'p qismini ishga layoqatli bo'lmagan qariyalar tashkil qiladi va ular parvarishga muhtoj bo'lib Yevropa davlatidan bo'lmagan immigrantlarni yollashga majbur. Yevropa davlatlarining bir qancha tarmoqlarida yani qurilish, sog'liqni saqlash va uzoq muddatli parvarishlash, qishloq xo'jaligi (ayniqsa mavsumiy ishlar), turizm va mehmondo'stlik, transport, ishlab chiqarishda muhojir ishchilarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shularga qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki yashil va raqamli sektorlardagi qo'shaloq o'tish iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish bilan bir qatorda malakali immigrant ishchilarga bo'lgan ehtiyojni ham ortirishi kutilmoqda. Yani rivojlangan mamlakatlarning to'rta eng demografik qarishga uchrangani iqtisodiyotning raqamli va yashil sektorlarida muhojirlarga tayanadi, bular Germaniya, Gollandiya, Irlandiya va Shvetsiya. Germaniyaning o'zida immigrantlarning 28% yashil sektorda va raqamli sektorning uchdan bir qismida ishlaydi [6].


Ko'nikmalar haqida gap ketganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda yuqori malakali iste'dodlarni jalb qilish uchun ko'plab yo'llar yaratilgan, chunki iqtisodiy o'sish asosan past malakali sektorlarda emas, balki o'rta va yuqori malakali ishchilarga muhtoj bo'lgan tarmoqlarda kutilmoqda [6]. Ylga a'zo davlatlar parvarishlash hodimlarini uzoq muddatga jalb qilish va ushlab qolish uchun kurashmoqda. Tibbiyot xodimlari va shaxsiy parvarish xodimlari uchun yetti milliongacha ish o'rinlari 2030 yilgacha tayyor bo'lishi kutilmoqda va Yevropa Ittifoqi mehnat bozori bilan faqat qisman qoplanishi ehtimoli katta. Salomatlik va parvarishlash sektorlari allaqachon mehnat muhojirlariga tayanadi. 2018 yilda 14.2 million ishchidan deyarli 2 million shaxsiy salomatlikni saqlash sektori va uzoq muddatli parvarishlash xodimlari boshqa Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatdan (693,700) yoki chet eldan kelganlar [5]. Uzoq muddatli parvarishlash sektorining chetdan kelgan ishchilarga bo'lgan ehtiyojiga Ylga azo

davlatlarning demografik qarish va miyaning aql faoliyati ketishi kabi muammolar sabab bo'lmoqda. 2050 yilda Yevropa Ittifoqida 38,1 million kishi uzoq muddatli parvarishga muhtoj bo'lishi taxmin qilinmoqda. Bu esa 2019 yilga nisbatan 23,5 foizga ko'pdir [5]

Ishlab daromad qilish uchun milliy chegaralarni bosib o'tishning asosiy sabablariga iqtisodiy tengsizliklar va ishsizlik kiradi va bu xalqaro migratsiyaning muhim motivlaridan hisoblanadi. Yuqoridagilarga qushimcha qilib shuni aytish mumkinki iqtisodiy, siyosiy va ekologik inqirozlarning va o'zgaruvchan demografiyani (yani dunyoning ba'zi qismlarida aholining qarishi va boshqalarida "yoshlarning ko'payishi) mehnat migratsiyasining kuchayishiga yordam beradi.

Germaniyada 2023-yilda eng ko'p muhojirlar soni qayd etilgan (1 271 200), Ispaniyada 1 251 000, Italiyada 439 700 va Frantsiya 417 600 muhojirlar haqida xabar bergan. 2023-yilda eng ko'p emigrantlar soni Ispaniya va Germaniyada qayd etilgan (mos ravishda 608 700 va 574 200), undan keyin Fransiyada (266 400), Ruminiya (239 200) va Polshada (194 100). 2023-yilda, 2022-yilda bo'lgani kabi, Yevropa Ittifoqining barcha 27 mamlakati boshqa davlatlarga ishlash va yashash uchun ketgan o'zining fuqarolaridan ko'ra ko'proq immigrantlar haqida xabar berdi. Bundan tashqari, 2022-yil bilan solishtirganda, 2023-yilda immigrantlar sonining 15 ta Yevropa Ittifoqi davlatida kamayganini, 12 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa o'sish kuzatilgani haqida malumotlar bor. 2022-2023 yillar oralig'ida nisbatan eng yuqori pasayish Chexiyada (59,1%), Latviya (51,7%) va Estoniyada (46,6%), eng katta o'sish esa Finlyandiyada (46,5%), Bolgariyada (39,9%) va Kiprda (31,3%) kuzatildi.

Doimiy aholi soniga nisbatan 2023 yilda immigratsiyaning eng yuqori ko'rsatkichi Maltada qayd etilgan (1000 kishiga 76 immigrant), undan keyin Kiprda (1000 kishiga 43 immigrant) va Lyuksemburgda (1000 kishiga 40 immigrant) [2].



1-rasm. Mehnat muhojirlari eng ko'p boradigan mamlakatlar.

Migratsiyaning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga va jamiyatlariga qushayotgan hissasi Covid-19 davrida yanada yaqqol ko'radi. Aniqroq qilib aytganda pandemiya davrida ko'pgina tarmoqlar faoliyat yuritishiga aynan muhojirlar sabab bo'ldi, masalan supermarketlar, jamoat transporti, shahsiy parvarishlash va kasalxonalar kabi barcha tarmoqlar pandemiyadan oldin ishchi kuchi tanqisligiga uchragan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti)ning 25 mamlakatida immigrantlar soliq va ijtimoiy to'lovlarga ko'proq hissa qo'shadi hukumatlar ularni ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash va ta'limga sarflaydigan mablag'iga nisbatan. Davomiy tadqiqotlar buni yana bir bor ta'kidlaydiki, yaqinda kelgan va o'rnashib bo'lgan muhojirlarning mehnat bozori integratsiyasiga sarmoya kiritish muhim hisoblanadi, chunki bunday dasturlar juda yuqori moliyaviy daromadga ega. Shuningdek horijiy ishchilarning soni ortib borishi ular ko'chib borayotgan davlatlarning YaLM o'sishida qo'shgan hissasida yaqqol namoyon bo'lmoqda, bu esa o'z navbatida yuqori ish stavkalari bilan ham bog'liqdir.

Xulosa va takliflar.

Demografik qarishning o'sib borayotgani rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z tasirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Eurostat ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda Evropa Ittifoqi aholisining beshdan biridan ko'prog'i (20,8%) 65 va undan katta yoshdagilar bo'lgan va bu ko'rsatgichlar uzoq kelajakda yanada o'sishi kutilmoqda. Bunday muammo yaqin va uzoq kelajakda ishlashga layoqatli aholi sonining kamayishi tufayli ko'pgina iqtisodiyot tarmoqlarining oqsashiga sabab bo'ladi. Ayniqsa zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida yangi ko'nikmalarning bo'lishi malum bir tarmoqlarning rivojlanishida juda muhim hisoblanadi. Bunday tarmoqlarga raqamli va yashil iqtisodiyotlar kirib ularning to'la to'kis faoliyat olib borishida ishga layoqatli va yuqori malakali ishchilarning o'zni katta. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, immigratsiyaning Yiga azo davlatlar hayotida o'zni muhim hisoblanadi. Yani iqtisodiyotining davomiy barqaror rivojlanishi uchun rivojlangan mamlakatlar muhojir ishchilarni ishga yollashga muhtoj. Aynan shu sababdan rivojlangan mamlakatlar immigratsiyani kuchaytirish maqsadida ko'pgina yengilliklar qilmoqda. Bunday siyosatlarga viza olish tartiblarini osonlashtirish va boshqalar kiradi. Ammo ko'pgina yengillashtirilgan yo'llarga qaramay noqonuniy ravishda rivojlangan mamlakatlarga kirib borayotganlarham yo'q emas, garchi bunday yo'l bilan uzoq vaqtga qololishmasaham. Noodatiy mehnat migratsiyasi Yiga azo davlatlar iqtisodiy o'sishiga kamroq hissa qo'shishi ohirgi yillarda yanada aniqroq namoyon bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ko'pgina tarmoqlarining faoliyat olib borishida ishga layoqatli va malakaga ega ishchilarning o'zni katta

hisoblanadi. Jumladan sog'liqni saqlash va uzoq vaqt parvarishlash, qishloq xo'jaligi, turizm va mehmondo'stlik, IT va logistika kabi tarmoqlar ishchi kuchi tanqisligiga uchragan. Ishchi kuchi yetishmasligi muammosi tufayli YIga azo davlatlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligi havf ostida qolmoqda. Evropa mehnat organi ma'lumotlariga ko'ra, jami 28 hil kasbdan , 2020 yilda Evropa Ittifoqi ishchi kuchining 14 foizi (27 million) ish bilan ta'minlangan holda, ishchi kuchi tanqisligi bor deb tasniflangan. 2022-yilda 3 % dan ortiq barcha mavjud ish o'rinlari, ya'ni olti millionga yaqin ish o'rinlari bo'sh qolgan. Bunday muammolarga yechim sifatida mehnat migratsiyasi bilan birgalikda mehnat sharoitlarini yaxshilash ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etishning asosiy kaliti deb ishonilmoqda. Ayniqsa pandemiya ishchi kuchi tanqisligi tufayli muhojir ishchilarga bo'lgan ehtiyoj yanada ko'payganini yaqqol ko'rsatib berdi. Chunki mamlakatlarning ko'pgina iqtisodiy tarmoqlari COVID-19 vaqtida aynan muhojir ishchilar tufayli faoliyatini to'htatmagan.

Yevropa ittifoqiga azo davlatlarning demografik qarishi va miyaning aql faoliyati ketishi kabi muhim muammolarga uchrayotgani sababli, yoshi keksa aholiga doimiy tibbiy yordam va parvarishlash kerak bo'lmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar yaqin va uzoq kelajakda o'z iqtisodiy rivojlanishining bardavomligini taminlashda va iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda chetdan kelgan ishchilarga muhtoj. Immigrant ishchilarning asosiy motivlaridan o'z tug'ilib o'sgan davlatidagi iqtisodiy muammolari va ishsizliklari bo'lib, ular ko'chib borayotgan davlatning yahshi maosh, hamda yahshi ish va yashash sharoitlari bo'lishi ularning uzoq muddatga yashab qolishini va oilasini ham ko'chirib kelishini ta'minlaydi. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki rivojlangan mamlakatlarga chetdan kelgan ishga layoqatli va malakali ishchilarning YalIM oshirishga qo'shgan hissalar ham sezilarlidir.

Adabiyotlar:

1. European Comission- https://commission.europa.eu/index_en
Eurostat statistics- https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Residence_permits_%E2%80%93_statistics_on_auth
2. Home affairs- <https://home-affairs.ec.europa.eu/policies/migration-and-asylum/legal-migration-and-resettlement/work/single-permit-residence>
3. Migration data portal <https://www.migrationdataportal.org/themes/>
4. Caritas <https://www.caritas.eu/wp-content/uploads/2023/12/221215>
5. ICMPD <https://www.icmpd.org/news/close-to-300-avenues-to-migrate-legally-for-work-in-europe-new-mapping-of-labour-migration>
6. MDPI- <https://www.mdpi.com/2227-7099/13/8/213>